2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 50 (1111), 2024-yil 9-mart, shanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

QARORI

MUBORAK RAMAZON OYINI MUNOSIB TARZDA O‘TKAZISH TO‘G‘RISIDA

So‘nggi yillarda mamlakatimizda milliy o‘zligimizni tiklash, inson qadrini ulug‘lash, fuqarolarimizning huquq va manfaatlarini ta’minlash borasida g‘oyat muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, muqaddas dinimizning insonparvarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan ezgu an’analarini munosib davom ettirishga ulkan e’tibor qaratilmoqda. Vatanimizning qadimiy tarixini chuqur o‘rganish, buyuk alloma va aziz avliyolarimizning ibratli hayot yo‘li, noyob ilmiy merosini tadqiq etish yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari bilan uyg‘un holda olib borilmoqda.

Bu jarayonda, ayniqsa, bilim va ma’rifat, ma’naviy poklik, mehr-oqibat, xayr-u saxovat fazilatlari ulug‘lanadigan muborak Ramazon oyining ahamiyati katta bo‘layotganini ta’kidlash lozim. Mamlakatimiz mo‘min-musulmonlari ushbu muqaddas oyni doimo orziqib, katta xursandchilik bilan kutib oladi. Oila va mahallalarda o‘zaro mehr-oqibatni mustahkamlash, yosh avlodimizni bilim-ma’rifat va go‘zal xulq sohiblari etib kamol toptirish, ehtiyojmand insonlarga ko‘-mak va yordam ko‘rsatish kabi ezgu amallarni sidqidildan, ixlos bilan ado etishga intiladi.

Xalqimiz uchun ezgulik, birdamlik, olijanoblik va shukronalik timsoli bo‘lgan qutlug‘ Ramazon oyini munosib kutib olish va yuqori saviyada o‘tkazish, diniy-ma’rifiy, madaniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va ulug‘lash maqsadida:

1. 2024-yilda muborak Ramazon oyining boshlanishi **11-mart** kuniga to‘g‘ri kelishi haqidagi O‘zbekiston musulmonlari idorasining axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi va boshqa hamkor tashkilotlar bilan birgalikda hududlarda Ramazon oyini **milliy an’ana va qadriyatlarga mos tarzda** o‘tkazishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

Muruvvat, ahillik va hamjihatlikni ulug‘lovchi ushbu fazilatli oyda **kam ta’minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, oila va mahallalarda mehr-oqibat va o‘zaro hurmat muhitini mustahkamlash, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar, qabristonlarni obodonlashtirishga** qaratilgan tadbirlarni yanada kuchaytirishga alohida e’tibor berilsin.

3. O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Ramazon oyini o‘tkazish bilan bog‘liq tadbirlarni keng yoritish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi M.M.Kamilov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **SH. MIRZIYOYEV**

Toshkent shahri,
2024-yil 7-mart

Islohot odimlari

AYOLNI ULUG‘LASH

oilani, Vatanni, kelajakni ulug‘lash demakdir

Kuni kecha yangi O‘zbekistonimizda Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami alohida tayyorgarlik, ko‘tarinki ruh va o‘zgacha shukuh bilan nishonlandi. Bayram munosabati bilan poytaxtimizda tashkil qilingan tantanali marosimda ishtirok etgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning nutqini tinglab, matbuotda o‘qib, mamlakatimizda xotin-qizlarga qaratilayotgan e’tibor yangi bosqichga ko‘tarilgani, ayol qadri yuksak darajada ulug‘lanayotganiga yana bir bor amin bo‘ldik.

Darhaqiqat, insoniyat tamaddunida har qaysi jamiyatning madaniy darajasi va ma’naviy barkamolligi ayollarga munosabat bilan belgilangan. Tarixning o‘zi guvoh: ayol sha’niga qanchadan-qancha qasidalar, she’r-u dostonlar, qo‘shiqlar, g‘azallar bitilgan bo‘lmasin, toki dunyoda odamzod bor ekan, ona mehri, ayol muhabbati barqaror ekan, bu azaliy va abadiy mavzu hech qachon poyoniga yetmaydi. Nega deganda, Yaratganning buyuk mo‘jizasi bo‘lmish ayol zoti har qanday yuksak hurmat va tahsinlarga munosib. Hadisi sharifdagi “Jannat onalar oyog‘i ostidadir”, “Avval onangizga, yana onangizga va yana onangizga, so‘ng otangizga yaxshilik qiling” degan benazir so‘zlarda ham ana shu adoqsiz ehtirom namoyon bo‘lib turibdi.

Davomi 5-betda

Qadriyat

YANGI ISH O‘RINLARI YARATISH, EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH

Davlat dasturida iqtisodiy yo‘nalishdagi vazifalar bisyor

Davlatimiz rahbarining joriy yil 21-fevraldagi farmoni bilan imzolangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturining iqtisodiyotga bag‘ishlangan ikkinchi bo‘limi 17 band va 13 muhim yo‘nalishni o‘z ichiga olgan.

Dastur keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilinib, 30 mingdan ortiq taklif asosida ishlab chiqilgan. Ya’ni unga qiziqish yuqori bo‘lgani, umuman, keyingi yillarda odamlarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy faolligi ortib borayotgani diqqatga sazovor. Yana aytish kerakki, joriy yilga mo‘ljallangan ishlar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar bilan uyg‘un tarzda bajariladi. Jumladan, makroiqtisodiy barqarorlik deya nomlangan birinchi yo‘nalishda 2030-yilga qadar mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti hajmini 160 milliard AQSH dollariga yetkazish, aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollardan oshirish, davlat qarzini YIMning 50 foizidan, inflyatsiya darajasini esa 5-6 foizdan ko‘paytirmaslik belgilangan. 2030-yilga qadar mamlakatimiz iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish hisobiga “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirishi maqsad qilingan.

Bunga erishish uchun “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” davlat dasturida joriy yilda YIM o‘sish sur’atlarini 6 foizdan kam bo‘lmagan darajada ta’minlash ko‘zda tutilgan. Buning uchun qishloq xo‘jaligida 4 foiz, qurilishda 6,3 foiz, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda 7 foiz hamda bozor xizmatlari ko‘rsatishda 14,9 foiz iqtisodiy o‘sishni ta’minlash kerak. Dasturda eksport hajmi o‘sishini 25 foizga yetkazish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblangan budjet taqchilligi YIMga nisbatan 4 foizdan yuqori bo‘lmasligi ko‘rsatib o‘tildi.

Dasturning ikkinchi yo‘nalishi fiskal siyosatga oid chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq masalalar bo‘lib, bunda 2030-yilga qadar budjet taqchilligini 2025-yildan 3 foizdan past bo‘lishini ta’minlash, “natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish” amaliyotiga o‘tish, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish hamda “soliq ma’murchiligi tizimining samaradorligini yanada oshirish” borasida tizimli ishlar belgilangan. Bunda inflyatsiya darajasini 9 foiz atrofida ushlab turish hamda pul bozorida ijobiy 3-4 foizli real stavkalar shakllanishini ta’minlash muhim. Bu esa budjet jarayonlarining shaffofligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchi yo‘nalish sanoatni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar bo‘lib, kelgusi olti yilda sanoatning drayver sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish nazarda tutilgan.

Iqtisodiyot sohasidagi yana bir muhim yo‘nalish kapital bozorini rivojlantirishdir. Bu yo‘nalish mamlakatdagi xususiylashtirish jarayoni natijasini ifodalaydigan ko‘rsatkich bo‘lib, qimmatli qog‘ozlar bozori faollashuvi investitsion jozibadorlik oshishiga olib keladi. Ushbu maqsadda bir yil davomida xorijiy investorlarga taklif etish uchun istiqbolli loyiha takliflarini ishlab chiqish, xususiylashtirilayotgan davlat aktivlari to‘g‘risida taqdimot materiallarini tayyorlash hamda AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Germaniya va Shvetsiyaning salohiyatli kompaniyalari bilan uchrashuvlar reja jadvalini tasdiqlash kabi vazifalarni amalga oshirish zarur. Natijada iqtisodiyotda davlat ulushi kamayib, monopolist korxonalar faoliyati cheklanadi, davlat ulushi mavjud korxonalarda transformatsiya jarayonlari faollashadi.

Strategiyadagi muhim yo‘nalishlaridan yana biri investitsiya siyosati yuritishga oid bo‘lib, unda 2030-yilga qadar iqtisodiyotga 250 milliard AQSH dollari, xususan, 110 milliard dollar xorijiy investitsiyani jalb qilish, qiymati 150 milliard dollarlik 500 dan ziyod texnologik va infratuzilmaviy loyihani amalga oshirish hamda barcha iqtisodiy zonalarda zarur infratuzilmadan uzluksiz foydalanish imkoniyatini yaratish belgilangan. Shu bilan birga, davlat ishtirokidagi 40 ta korxona aksiyalarini “xalq IPO”siga chiqarish, bunda aholi qatnashishini rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish nazarda tutilgan.

Davomi 3-betda

Dolzarb mavzu

Odam bir kecha-kunduzda 5-6 litr kislorod qabul qiladi. Bu ehtiyojni qondirish uchun 22 ta daraxt kerak bo‘ladi. 1 gektar yerga ekilgan daraxt bir yilda 8 kilogramm karbonat angidrid yutib, 6 kilogramm kislorod ishlab chiqaradi. Yoki yarim gektardagi daraxt bir avtomobilning 42 ming kilometr yo‘l bosib, chiqargan karbonat angidridini yutadi. Shu bois, o‘rmonlar-u yashil maskanlarni yerning o‘pkasiga mengzashadi.

Daraxtlar transport vositalari shovqinini yutadi, qushlaru hayvonlar, tirik jonzotlarga in va ozuqa manbai, ularning baquvvat ildizlari tuproq namligini saqlab, havo haroratini pasaytiradi, saksovul-u yulg‘inlar esa qum-changlarga qalqon — to‘siq bo‘ladi.

Xullas, daraxtlarning ahamiyati, qadr-qimmati katta. Iqlim o‘zgarib borayotgan hozirgi davrda, ayniqsa, yoz faslida toshkentliklar ham buni tobora ko‘proq his qilyapti.

— Chunki poytaxtda yashillik darajasi keskin kamayib ketgan. Bundan 15 yil ilgari shahar 20-30 foizgacha yashillik bilan qoplangan bo‘lsa, hozir bu ko‘rsatkich 10-18 foizga tushib qolgan. Daraxtlar, bog‘lar va ko‘kalamzorlar o‘rni binolar, yo‘llar, asfalt va beton bilan qoplangan, shaharsozlik va qurilish ishlari ham faol olib borilmoqda, — deydi iqlimshunos tadqiqotchi Erkin Abdulahatov. — Bir necha tadqiqotchi havodagi kislorod, azot va karbonat angidrid tarkibini o‘z metodologiyasi asosida o‘rgangan. Natija shuni ko‘rsatganki, Toshkent shahri markazida kislorod miqdori 20 foiz — dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan qariyb 1 foiz past bo‘lgan.

Uyqumiz buzilishiga sabab — kislorod yetishmasligi. Ya’ni shaharda o‘rtacha 21 foiz atrofida kislorod bo‘lishi kerak. Bunda uning 0,1-0,2 foizlik o‘zgarishi ham bilinadi, kattaroq raqamlarni tasavvur qilavering. Katta shaharlarda kislorod miqdori odatda 20,5 foiz bo‘ladi, lekin poytaxtimizniki mazkur ko‘rsatkichdan ham pastroq. Bu yashillik kamayib ketayotganini anglatadi. Tabiiyki, yanada aniqroq ma’lumotlar keng qamrovli tadqiqotlarni talab qiladi.

Toshkent va boshqa shaharlarda havoning ifloslanishi va harorat oshib borayotganiga yashillik darajasi kamayayotgani katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Buning sabablaridan biri esa daraxtlarning noqonuniy kesilishidir.

Davomi 4-betda

Bunday amallar jamiyat tafakkurining yangilanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Qalblarda insoniylik tuyg‘usi jo‘sh urgan. Yoshlar shu ruhda kamol topgan. Hashar ming yillar mobaynida kishilar o‘rtasidagi bir-biriga yordam, insonparvarlik, saxovatpeshalik kabi ezgu tuyg‘ularni yoshlar ongiga singdirishga xizmat qilgan.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 9-mart, 50-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Izhor

Matlubaxon VOHIDOVA,
So‘x tumanidagi “Mulki Bovohid” MCHJ rahbari, “Do‘stlik” ordeni sohibi

Bugungi So‘xni uch-to‘rt yil oldingi holati bilan mutlaqo qiyoslab bo‘lmaydi. Dunyo u yoqda tursin, ma’lum ma’noda, davlatdan ayro bu joylar faqat keyingi yillardagina ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish yo‘lida qabul qilingan hayotbaxsh qarorlar asosida asliga qaytdi. Bu e’tibor, g‘amxo‘rlik va imkoniyat so‘xliklar hayot tarzini tubdan o‘zgartirdi. Zamonaviy korxonalar, keng va ravon yo‘llar, ichimlik suv, elektr ta’minoti bilan bog‘liq yo‘nalishlarda qilingan ulkan bunyodkorlik ishlari haqida har qancha gapirsak oz. Bugun So‘xda hammasi boshqacha, risoladagidek.

BUGUN SO‘XDA HAMMASI BOSHQACHA

Tul qishlog‘idan Qal’acha mahallasiga kelin bo‘lib tushganimga chorak asrdan oshdi. Qishlog‘imiz tuman markazidan birmuncha olisda. Ishlab chiqarish tarmoqlari yo‘q edi. Aksariyat xotin-qizlar, yoshlar ishsiz, bir amallab kun ko‘rishga odatlanib qolgandi.

Mahallamizda tikuvchilik yo‘nalishida korxona tashkil etish g‘oyasi tug‘ildi. Shukrki, mahalla faollari, oilamdagilar meni har jihatdan qo‘llab-quvvatladi. Dastlab uy sharoitida tikuvchilikka qiziqqan xotin-qizlarni ishga jalb qildik. “Ustoz — shogird” an’anasi asosida “Temir daftar” va “Ayollar daftari”ga ro‘yxatga olingan hamda nogironligi bo‘lgan ayollarga kasb sirlarini o‘rgatdik. Bugungi kunga kelib, korxonamizda bu yo‘nalishda 20 dan ortiq xotin-qizning bandligi ta’minlandi. Ular yordamida milliy hamda zamonaviy liboslar, sport kiyimlari, ko‘rpa-to‘shak tayyorlashni yo‘lga qo‘yganmiz.

Bu yerda ishlayotgan har bir xotin-qizning o‘ziga xos yashash tarzi, hayot kechinmalari bor. Ular mana shunday tinch, emin-erkin yurtda farovon yashab, mehnat qilayotganiga shukrona aytadi.

Ezgu maqsad yo‘lida boshlagan ishlarimiz kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Korxonamizda makaron ishlab chiqarish ham yo‘lga qo‘yilgan. Bu yerda 10 nafarga yaqin yosh mehnat qilmoqda.

Bular o‘z-o‘zidan amalga oshib qolayotgani yo‘q, albatta. Tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan e’tibor va rag‘bat, soliq, bank kreditlari borasida berilgan o‘ziga xos imtiyoz va imkoniyatlar ish samaradorligimizni oshirishga xizmat qilmoqda.

Ayni kunlarda davlat-xususiy sheriklik asosida mahalla fuqarolar yig‘ini uchun zamonaviy bino qurilishini yakuniga yetkazdik. Binoning birinchi qavatida mahalla faollari uchun qulay sharoitlar yaratildi. Yuqori qismida esa yoshlar uchun dasturlash, xorijiy tillarni o‘rganish o‘quv markazlarini ochdik.

Kamtarona mehnat va izlanishlarim qadrlanib, yurtimizning yuksak mukofotiga munosib ko‘rilganim qalbimga cheksiz quvonch tuyg‘ularini olib keldi. Yangi O‘zbekistonning yangi hayotida oz bo‘lsada, hissam borligidan faxrlandim.

Maqsadim — xotin-qizlar biror kasb-hunar sirlarini puxta egallab, muqim va daromadli ishga ega bo‘lishiga, shu orqali hayotda o‘rnini topishiga ko‘maklashish. Har bir ayol jamiyatda o‘z o‘rnini topishga haqli deb o‘ylayman. Buning uchun barcha imkoniyatlar yetarli.

MEHNATIMIZGA BERILGAN YUKSAK BAHO

Buoyshaxon ISROILOVA,
“Uchkurgan Textile” mas’uliyati cheklangan jamiyatining “John Deere” paxta terim kombayni mexanizatori, “Shuhrat” medali sohibi

Bugun qishloq xo‘jaligi mexanizatori sifatida faoliyat olib borayotgan xotin-qizlar safi tobora kengaymoqda. Men ham ularning bir vakili bo‘lganimdan faxrlanaman. Prezidentimizning kuni kecha imzolagan farmoniga muvofiq, “Shuhrat” medaliga sazovor bo‘ldim. Bu men kabi qishloq ayollarining mehnatiga berilgan yuksak bahodir.

Uch yildan buyon yigiruv, to‘quv va tikuv fabrikalarini o‘zida birlashtirgan “Uchkurgan Textile” MCHJda mehnat qilib kelaman. Hozir korxonada 4 mingga yaqin ishchi faoliyat yuritadi. Klaster maqomida xizmat ko‘lami kengaygach, qishloq xo‘jaligi texnikalari va mutaxassislariga ehtiyoj keskin ortdi. Ayni paytda bu yerda 200 dan ziyod mexanizator bor. Paxtani kombaynlarda yig‘ishtirib olish hajmi yil sayin oshgani tufayli mexanizatorlar sonini ko‘paytirishga kirishildi. Bunda biz, ayollar ham tashabbus bilan chiqdik.

Keksa avlod vakillarining yodida bo‘lsa kerak, o‘tgan asrning 70-yillarida Popdan mexanizator xotin-qizlar yetishib chiqqan.

> **Korxonamizda har yili 100 ga yaqin qishloq xo‘jaligi texnikalari xarid qilinadi. Uchqo‘rg‘on va Uychi tumanlaridagi qariyb 15 ming gektar yer klaster uchun paxta maydoniga mo‘ljallab ajratilgan.**

Hatto Turob To‘la ular haqida she’rlar bitgan, Kommuna Ismoilova qo‘shiqlar kuylagan. Yarim asrdan so‘ng “Popning popuk qizlari”ga havas qilgan uchqo‘rg‘onlik ayollar orasida ham ana shunday shijoatlilari paydo bo‘ldi.

Men tuman markazidagi Yorqin hayot mahallasida istiqomat qilaman. O‘rta maktabni tamomlagach, tikuvchilik hunarini egalladim. Otam uzoq yillar mexanizator sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Biz bolalikdan otamning traktori atrofida ulg‘ayganmiz.

Yoshligimdan otamning sharafli izidan borishni ko‘nglimga tukkan edim. Korxona tomonidan tashkil etilgan mexanizator o‘quv kursida tahsil oldim. Avval yuk tashuvchi, ekinlarga ishlov beruvchi traktorlarni mustaqil boshqarishni o‘rgandim. Keyin esa paxta terish kombaynlarini ham mahorat bilan haydashni uddaladim. Bulturgi mavsumda 25 tonnadan ortiq paxta terib, xirmon ko‘tardim. Oilamdagilar mexanizatorlikni egallab, otam kasbini davom ettirayotganimdan faxrlanadi.

Korxonamizda har yili 100 ga yaqin qishloq xo‘jaligi texnikalari xarid qilinadi. Uchqo‘rg‘on va Uychi tumanlaridagi qariyb 15 ming gektar yer klaster uchun paxta maydoniga mo‘ljallab ajratilgan. Paxtani ekishdan boshlab terishgacha bo‘lgan jarayon to‘liq avtomatlashtirilgan tizimda bajariladi. Asosiy e’tibor mexanizatsiyaga, paxta terim kombaynlariga qaratilgan. Korxona o‘z tasarrufidagi fermer xo‘jaliklarini har jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. O‘g‘itidan tortib, kultivatsiyasigacha — bari zimmasida. Men ham yil mobaynidagi mavsumiy agrotexnik tadbirlarning barchasida faol ishtirok etaman.

Erkaklar bilan bir safda ter to‘kayotganim menga hech qanday qiyinchilik tug‘dirmaydi. Yirik texnikalarni boshqarish insondan o‘ziga ishonchni, alohida hafsalani talab etadi. Muhimi, yerni sevsangiz, unga foyda keltirishni istasangiz, mashinani boshqaruv vaziyatida ham mas’uliyat va ehtiyotkorlikni yo‘qotmaysiz. Niyatim o‘zim singari mexanizator kadrlar tayyorlashga astoydil ko‘maklashishdir.

Qadriyat

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

DIL G‘UBORIN ARITAR HASHAR

Tush mahali yemakxonadagi soya joyda navbat kutar ekanman, sovuq yelvizak yuzimni chimchiladi. Navbatim kelgach, oynadevor yonidagi oftobro‘ joyga o‘tirdim. Erta bahor quyoshi jonning rohati. Sal narida esa maxsus libosdagi ishchilar. Ularning bir guruhi ko‘p qavatli uy oldini supurib-sidirmoqda. Boshqalari butasimon gullarni qaychilab, daraxtlarga ohak surkayapti. Ishchilarni kuzata turib “Navro‘z yaqin”, deya o‘yladim.

Davlatimiz rahbarining Navro‘zni ko‘tarinki ruh va yuqori darajada o‘tkazishga doir qarori qabul qilindi. Hujjatda sharqona yangi yil bayramini yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan o‘zgarish va yangilanishlarga mos holda, har tomonlama yuksak saviyada o‘tkazishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilangan. Jumladan, Navro‘z bayrami arafasida yurtimizning barcha hududlarida umumxalq hashari o‘tkaziladi. Qarorda shuncha vazifa turib, nega aynan hashar mavzusiga to‘xtalayotganimizga kelsak, bilasiz, milliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan hashar mavzusini keyingi paytlarda bugungi huquqiy jamiyat talabi — majburiy mehnat bilan qorishtirish holatlari uchrab turibdi. Shular haqida o‘ylar ekanman, beixtiyor bolalik chog‘im yodga tushdi...

Ota hovli, uyning kunchiqar tomonidagi oftobro‘da akam qishloqdoshimiz Juma aka bilan yer ag‘daryapti. Choponining etagini qayirib, belbog‘iga qistirib olgan Juma aka peshonasidan duvillab oqayotgan terni artayotib:

— Cho‘ldagi tanishimda qo‘zi bor ekan, ertaga borib-kelmasak kech bo‘ladi, — dedi.

Cho‘l deganimiz faqat cho‘ponlar yashaydigan dasht. Ular yetim qolgan yoki sovliqning suti yetmagani bois, ayrim qo‘zilarni sotishga majbur bo‘ladi. Bunday qo‘zi tez yetiladi. Yarim yilga bormasdan yaxshigina pul bo‘ladi. Sotiladigan qo‘zining daragi chiqdimi, borib olish kerak. Shuning uchun Juma aka qo‘zini vaqtliroq olib kelish kerak, degan edi. Akam uning gapini tasdiqladi. Ikkalasi belkurakning dastagiga ko‘kragini tirab turgancha, qo‘zini qanday olib kelishdan to uni boqib sotgungacha bo‘ladigan ishlar rejasini tuzib chiqdi. Shu tob ko‘chada ovoz eshitildi: “Oh-hoy, eshitmadim demang-laar! Ertaga hamma hasharga!”

Akam qulog‘ini ding qilib turgan Juma akaga qaradi. U yelka qisib, bilmadim deganday ishora qildi. “Ertaga hashar ekan”, deyman ular jarchining gapini tushunmaganini anglab.

— Qo‘zini olib kelishga qachon boramiz? — dedi akam sinovchan ohangda.

— Ertadan keyin, — qisqa javob berdi Juma aka.

— Sotib yuborsa-chi?!

— Nasib qilgani, hasharga bormay, olabo‘ji bo‘lgandan ko‘ra...

Shu tariqa ularning biznes rejasi barbod bo‘ldi. Ertasi kuni men ham akamga ergashib, hasharga bordim. Qishloqdoshlar darveshona o‘tkaziladigan maydonni tozalab tekisladi. Kimdir yer o‘choq qazdi. Boshqasi arava bilan uyidan o‘tin olib keldi. Shu tariqa hashar qishloq ko‘chalari oralab tarqaldi. Kimdir ariq bo‘yidagi daraxtlarni butagan, boshqasi suv yo‘lini ochgan, qizlar va ayollar ko‘cha-ko‘yni supurishga tushgan...

Ko‘p qavatli uyning atrofini supurayotgan ishchilarni ko‘rib, bolalikdagi o‘sha manzara ko‘z oldimga keldi. Ularning yonidan shu uyda yashayotgan kishilar bemalol o‘tib-qaytyapti. Nima uchun kimdir kelib hovlimizni tozalab ketishi kerak, degan o‘y ularning xayoliga ham kelmaydi, nazarimda. Bahorni yasharish, yangilanish fasli deymiz. Bunday o‘zgarishlar, avvalo, odamning ruhiyatida sodir bo‘ladi. Fevral adoqlay boshlagach, xonaga qamalib o‘tirishdan bezib qolasiz. Olis-olislarga, adoqsiz kengliklarga chiqib ketgingiz keladi. Jismoniy mashq qilish ehtiyoji tug‘iladi. Nega bunday bo‘layotganini o‘zimiz ham tushunmay ajablanamiz. Ammo bo‘sag‘amizdagi qorni birov tozalab ketishi bizni hayratlantirmaydi. Aksincha, tozalash bir kun kechiksa, darrov telefonni qo‘lga olib, “JEK” deya saqlangan telefon raqamini izlaymiz. Tanamiz va ruhiyatimizdagi o‘zgarishlar sababi ming yillar narida ekanini tasavvur ham qila olmaymiz.

Tirik jon borki, uning asrlar osha ko‘nikmaga aylangan odatlari bo‘ladi. Bu fanda “biologik soat” deb ataladi. Masalan, odamlar uzoq vaqt davomida soatsiz, faqat quyoshning chiqishi va botishiga qarab yashagan. O‘sha paytlar odam ov qilish uchun tong qorong‘isida uyidan chiqib ketgan. So‘ng to‘rt-besh soat vaqt o‘tib, choshgohda dam olgan. Mana shunday muttasil harakat uning biologik soatiga aylangan. Zamonaviy ilm-fanda aynan shu paytda odam tanasi faol ishlashi tasdig‘ini topgan.

Bahor fasli ham tongga o‘xshaydi. Shu vaqtda odam tanasi faollashadi. Bu ham tabiiy jarayon, qadimda qish ketib, ishlar ko‘payishi bilan bog‘liq hodisa. Ya’ni bahorda ruhiy va jismoniy o‘zgarishlarga ehtiyoj biologik soatimiz sabab qo‘zg‘aladi. Odam genetikasi ilk davrlardagi faollikni “sog‘inadi”!

Bunday sog‘inch o‘rtagan vaqtlarda boshqa xalqlar o‘zini uyidagi ishga uradi. Xalqimizda esa bu umumxalq hashari ko‘rinishida qadriyatga aylangan. Hashar asrlar osha xalqimiz birdamligi timsoli bo‘lib kelyapti. Shuning uchun ko‘chada o‘tib ketayotganlar devor urayotgan odamlarga duch kelsa, hech bo‘lmasa, belkurakda bir marta loy olib berishni odat qilgan. Bu bilan devor bitib, ustalarning og‘iri yengil bo‘lib qolmaydi. Ammo odamlar qalbida bir-biriga ezgulik ulashish ko‘nikmasi paydo bo‘ladi. Loy olib bergan odam shu orqali mehrini izhor qiladi. Uy egasi davralarda imoratimizga falonchining ham qo‘li tekkan, deb eslab yuradi.

Biz jamiyatda ahillik bo‘lsa, muammolar o‘z-o‘zidan yechilishi haqida ko‘p gapiramiz. Ammo ba’zida mana shu kabi kichik jihatlarni esdan chiqarib qo‘yamiz. Aynan shu kabi arzimasdek ko‘ringan jihatlar insonlar orasidagi mehr ipi hisoblanadi. Negaki, munosabatlar ham

odam tanasidagi atom va hujayralar kabi kichik zarralardan bir butunlik kasb etadi. Ularning bittasiga zaha yetsa, zanjir halqa buziladi. Tartib o‘zgaradi.

“Damas”ning orqa o‘rindig‘ida o‘zimdan uch-to‘rt yosh katta qo‘shnim Jamshid aka bilan yonma-yon o‘tirdik. Odatdagi salom-alikdan keyin oraga sukunat cho‘mdi. Biz poytaxtdan o‘ttiz-o‘ttiz besh chaqirim naridagi muzofotda yashaymiz. Ikkimiz ham shaharga ishga qatnaymiz. Nimadir haqida suhbatlashish uchun:

— Yana havo sovib ketdi, ish qiyin emasmi?! — dedim obodonlashtirishda ishlaydigan Jamshid akaga.

— O‘rganib ketganmiz, faqat bugun asabiylashish ko‘p bo‘ldi, — dedi. Keyin izohlay ketdi. — Bitta “dom”ning oldidagi muzlarni o‘yib, shu yerdagi ariqqa tashlayotgandik. Uydan bitta amaki chiqib, muz ariqda erib, ko‘lmak bo‘lsa, sasib jonga tegadi, deb oyoq tirab turib olsa deng. Muzni o‘zimiz bilan olib ketishimiz kerak ekan...

Biz qachon shu ahvolga kelib qoldik?! Axir qor-muzlarni qo‘shnilar ham hashar bilan tozalab qo‘yishi mumkin-ku! Buni bajarmas ekanmiz, nima uchun shu mehnatni qilayotganlarga ba’zan mensimay qaraymiz? Ulardan biri o‘sha qo‘shnim bo‘lsa, uncha-muncha odamdan mard, tanti.

Jamshid aka samimiy, mehnatkash odam. Uzoq yillardan beri shahar obodonlashtirishida mehnat qiladi. Vaqt topib dehqonchilik qilib, mol boqadi. Hayotidan nolimaydi. “Ishlayversa, Xudo bir kun beradi-da!” deydi bag‘rikenglik bilan. Biz, aslida, bolalarimizga u kishi kabi insonlarni hurmat qilishni o‘rgatishimiz, buning uchun ularga o‘zimiz ibrat bo‘lishimiz kerak. Donishmand xalqimiz mana shunday maishiy muammolarga barham berish uchun ham hashar qilgan. Bunday yig‘inlar paytida ko‘chalar, guzarlar, muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar tartibga keltirilgan. Shu bahona yolg‘iz qariyalar, nogironlar, boquvchisini yo‘qotgan, kam ta’minlangan oilalarga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatilgan. Ular holidan xabar olingan.

Bunday amallar jamiyat tafakkurining yangilanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Qalblarda insoniylik tuyg‘usi jo‘sh urgan. Yoshlar shu ruhda kamol topgan. Hashar ming yillar mobaynida kishilar o‘rtasidagi bir-biriga yordam, insonparvarlik, saxovatpeshalik kabi ezgu tuyg‘ularni yoshlar ongiga singdirishga xizmat qilgan.

Bitta misol, o‘sha vaqtlarda xalqimiz imorat uchun hozirgiday xarajat qilmagan. To‘g‘ri, hozir hashamga berilish oqibatida chiqim ko‘paymoqda. Ammo yaqin-yaqingacha imoratning katta qismi hashar bilan bitgan. Keyinchalik poydevor va lo‘mbozdagi loysuvoq uchun hashar qilinadigan bo‘ldi. Hozir hatto qishloqlarda ham poydevor ham, lo‘mboz ham ustaga haq berib bajarilmoqda. Hamma bir-birini “besh qo‘lday biladigan” qishloqda shunday holat bo‘lgach, tongda ishga ketib, shomda hujrasiga qamaladigan shaharliklardan nimani kutish mumkin?!

Bugun o‘quvchi maktab hovlisini tozalagani uchun majburiy mehnatga jalb qilindi, deyishdan oldin bir oz mulohaza qilish kerak. Masalan, Yaponiya maktablarida farroshlar yo‘q. Bu ishni o‘quvchilar bajaradi. Bizda esa bolalar hashar orqali mehnatga o‘rgatiladi. Shu jarayonda jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasi shakllanadi. Hasharda ijtimoiy-iqtisodiy holati qanday bo‘lishdan qat’i nazar, hamma teng xizmat qiladi. Aslida, biz ijtimoiy tenglik deyotgan tushunchalar ildizi qadriyatlarimiz zamirida yashiringan. Ana shu tushuncha tenglik, uy, mahalla, Vatan oldidagi javobgarlik tuyg‘usini uyg‘otadi. Juma akaga o‘xshab hashar sabab tayyor biznes-rejani yo‘qqa chiqarish odatiy holga aylanadi. Negaki, bunday vaziyatda shaxsiy manfaat chekinadi. Ha, hashar bahona dil g‘ubori ham ariydi. Vatanparvarlik tuyg‘usi birinchi safga chiqadi.

Mamlakatimizda Navro‘z va boshqa bayramlar sabab umumxalq hasharlari o‘tkazilishining boisi ham shunda. Bayramlar arafasida asl qadriyatlar yana bir bor esga olinib, ularga amal qilinadi. Prezidentimizning joriy yil 4-martdagi “2024-yilgi Navro‘z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori bilan umumxalq hasharini tashkil etish belgilandi. Unga ko‘ra, “Yashil makon” umummilliy loyihasi asosidagi tadbirlar o‘tkaziladi. Ya’ni Navro‘z bayrami arafasida yurtimizning barcha hududlari, tuman va shaharlar, mahallalar, ko‘chalarimiz obodonlashtiriladi. Daraxtlar ekilib, ko‘kalamzorlashtirish ishlari olib boriladi. Shu bahona mahalladoshlar bilan dildan suhbatlashish imkoniyati tug‘iladi. Yon-atrofimizni obod qilish asnosida tabiatning bir qismi ekanimizni dildan his etamiz. Ayni dam yoshlar tarbiyasida muhim ahamiyatga ega, ijtimoiy masalalar yechimi bo‘lgan qadriyatlarni asrab-avaylash bizning vazifamiz ekanini ham teran anglaymiz.

Darhaqiqat, xalqimiz azaldan ijtimoiy masalalarni hashar, maslahat orqali hal etgan. Bunday qarash esa bir-birini tushunishga yordam beradi. Muammolar uydan chiqsa ham mahalladan nariga o‘tmaydi. Agar shu kabi qadriyatlarimizni bugungi kunimizga mos ravishda qabul qilishni o‘rgansak, dunyo mamlakatlari ijtimoiy masalalarga yechimni bizdan o‘zlashtirishga o‘tadi...

Shunday o‘ylar bilan maqolani yozayotgan vaqtimda qishloqdoshlarning ijtimoiy tarmoqdagi guruhidan rasm keldi. Unda yigitlar katta ariqning tosh-betoni o‘yilgan joylarni yamayotgani aks etgandi. Bu manzarani ko‘rib, ko‘nglimda iliqlik, zavq uyg‘ondi. Shu payt kimdir bu ishni qaysi fermer bajarayotganini so‘radi. Unga javoban shunday ovozli xabar keldi “Qanday fermer, qishloqda hashar bo‘lyapti, kelmaysanmi?!”.

O‘ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030

Bu yilgi davlat dasturida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida bajarilishi, birinchidan, mamlakatimizda yoshlarga e’tibor yanada oshishiga olib keladi. Bu ularning kelajakka ishonchini mustahkamlab, bor imkoniyatlarini ishga solishiga katta rag‘bat beradi.

YANGI ISH O‘RINLARI YARATISH, EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH

Davlat dasturida iqtisodiy yo‘nalishdagi vazifalar bisyor

Nodir RASULEV,
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti loyiha rahbari, iqtisodiyot fanlari doktori

Boshlanishi 1-betda

Mazkur yo‘nalishdagi yana bir muhim masala nufuzli xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda mamlakatimizda kamida 10 ta xorijiy investitsiya loyihasi doirasida kon zaxiralarini baholashda ilg‘or xalqaro standartlarni joriy qilishdir. Shu maqsadda bu yil yurtimizda uchinchi bor Xalqaro investitsiya forumi o‘tkaziladi.

Iqtisodiyotdagi barcha loyihalar o‘z vaqtida bajarilishini pul-kredit tizimi barqaror ishlashini ta’minlashda bank sohasi muhim hisoblanadi. Mutaxassislar bejiz bankni iqtisodiyotning yuragi, deb ta’kidlamaydi. Shu nuqtayi nazardan, strategiyada ham muhim yo‘nalishlardan biri sifatida bank sohasida islohotlarni yanada faollashtirishga alohida e’tibor qaratilgan. Xususan, 2030-yilga qadar bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobar oshirish, davlat ixtiyorida 3-4 ta bankni saqlab qolgan holda banklarni xususiylashtirish, bank bozoriga kamida 4 ta yirik nufuzli chet el bankini jalb qilish bilan birga kamida 3 ta tijorat bankida islom moliyasining mezon va tartiblarini joriy etish vazifasi qo‘yilgan.

Strategiyada iqtisodiy sohada belgilangan muhim vazifalardan biri “yashil” iqtisodiyot bo‘lib, bunda 2030-yilga qadar bir qancha chora-tadbirlar nazarda tutilgan. Xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini 25 ming megavattga, uning jami iste’moldagi ulushini 40 foizga yetkazish, sanoatda “yashil sertifikat”lar bozorini rivojlantirish bilan birga, ko‘p qavatli uy-joylardagi xonadonlarning energiya samaradorligini baholash tizimini joriy etish maqsad qilingan. Shu bilan birga, jamoat transportini ekologik toza yoqilg‘iga o‘tkazish, issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan 2010-yildagi darajadan 30 foiz qisqartirish hamda iqlim o‘zgarishi sohasida barcha issiqxona gazlarini qamrab oluvchi monitoring tizimini (MRV) yaratish ko‘rsatib o‘tilgan. Aynan shu yo‘nalish bo‘yicha yil davomida mamlakatimizda qo‘shimcha 1270 MVt. quvvatli quyosh fotoelektr va 200 MVt. quvvatli shamol elektr stansiyalari, shuningdek, mikro va kichik GESlar ishga tushiriladi.

Ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralariga 60,9 MVt. tadbirkorlik subyektlariga 175,7 MVt. aholi xonadonlariga 102,2 MVt. ko‘p qavatli turar joylarga 8 MVt. bo‘lgan kichik quvvatli quyosh panellari o‘rnatiladi.

So‘nggi vaqtlarda ijtimoiy tarmoqlarda, jamoatchilik orasida keng muhokamalarga sabab bo‘layotgan sohalardan biri energetika tizimidir. Strategiyada energetika tizimini isloh qilish borasida aniq vazifalar belgilab berilgan. Xususan, 2030-yilga qadar tizim samaradorligini oshirish barobarida respublika bo‘yicha ehtiyoj uchun yetkazib beriladigan elektr energiyasi miqdorini 120 milliard kVt.ga, tabiiy gaz qazib olish hajmini 62 milliard kub metrga yetkazish, iqtisodiyot tarmoqlari energiya samaradorligini 2 barobar oshirish hamda barcha turdagi energiya resurslari hisobini yuritishni to‘liq raqamlashtirish belgilangan. Buning uchun joriy yilda “O‘zbekneftgaz” AJ tomonidan 95 ta ishlatish qudug‘i burg‘ilanadi, 81 ta quduqda murakkab turdagi kapital ta’mirlash ishlari olib borilishi hisobiga ularni ishlab chiqarishga qaytarish, 42 ta texnologik tadbir hamda bajarilgan ishlar evaziga 29,3 milliard kub metr tabiiy gaz qazib chiqarish ko‘zda tutilgan.

Strategiyadagi barqaror iqtisodiy o‘sish orqali transport-logistika tizimida ham qator islohotlar belgilangan. Xususan, tranzit yuklarni tashish hajmini 16 million tonnaga, elektrlashtirilgan temir yo‘llari ulushini 65 foizga yetkazish, aviaqatnovlar sonini 4 barobar oshirish bilan birga 56 ming kilometr yo‘l qurish va ta’mirlash nazarda tutilgan. Toshkent — Samarqand, Samarqand — Navoiy — Buxoro yo‘nalishlarida yangi tezyurar temir yo‘l quriladi. Xususiy aviakompaniyalar soni esa 10 taga yetkaziladi. Pirovardida bu yo‘nalish bo‘yicha respublikamiz hududi orqali tranzit yuklarni tashish hajmi 13,7 million tonnaga yetadi, yo‘lovchi va yuk tashish xizmatlari hajmi 12, aviaqatnovlar soni 40 foiz oshadi. Qo‘shni respublikalarga avtobus qatnovlari soni 2 barobar ko‘payadi, Andijon, Samarqand, Namangan, Qarshi va Urganch shaharlarida muntazam avtobus yo‘nalishlari bosqichma-bosqich brutto-shartnoma tizimiga o‘tkaziladi.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligida yillik o‘rtacha daromadni 5 ming dollarga, eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga yetkazish ko‘zda tutilgan. Buning uchun sohaga jami 15 milliard AQSH dollari miqdorida investitsiya jalb qilinishi kerak. Qishloq xo‘jaligida qo‘shimcha 300 ming gektar yerga zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni qo‘llagan holda dorivor, moyli, dukkakli, sholi, g‘alla, sabzavot, poliz ekinlari ekiladi. Intensiv bog‘ va uzumzorlar tashkil etiladi. Respublikada 2,5 million tonna quvvatga ega bo‘lgan 100 ta yangi agrologistika markazi ochiladi. Bu maqsadlardan kelib chiqib, 2024-yilda klasterlarga xorijdan hosildorligi yuqori urug‘liklar olib kirishga ruxsat berildi. Paxtada 5 ta, g‘allada 8 ta yangi tezpishar, serhosil navni tanlash va joylashtirish nihoyasiga yetkaziladi. Tanlab olingan navlar maydonini har yili kamida 10 foiz kengaytirib borish bilan birga zamonaviy tejamkor texnologiyalar paxta va g‘alla maydonlarining 40-50 foizida joriy etiladi. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bilan birga mahalliy bozorlarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlar tannarxi pasayishiga olib keladi.

2024-yilda eksport salohiyatini oshirish borasida 10 turdagi tayyor mahsulotning har biriga 10 tadan yangi istiqbolli bozorni aniqlash, “Eksport akselerator” dasturini amalga oshirish uchun xorijning ilg‘or konsalting kompaniyalarini jalb etish, “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqish va tasdiqlash hamda uni doimiy monitoring qilib borish belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish orqali joriy yilda eksport o‘tgan yildagidan 25 foiz ko‘payadi.

So‘nggi yillarda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, aholi farovonligini yanada oshirishda tadbirkorlikka katta e’tibor berilmoqda. Shu bois, kelgusi olti yilda iqtisodiyotda nodavlat sektor ulushini 85 foizga yetkazish, davlat ulushi mavjud 2,3 ming korxona sonini 6 barobar kamaytirish hamda 17 turdagi davlat monopoliyasini bekor qilish orqali ushbu sohalarga xususiy sektorni keng jalb etish maqsad qilingan. Biznes uchun qo‘shilgan qiymat va foyda soliq stavkalarini uch yil davomida oshirilmasligini kafolatlash ham ko‘rsatib o‘tilgan. Oilaviy tadbirkorlik asosida bandlikni ta’minlashda oddiy qo‘l mehnatidan sanoatlashgan ishlab chiqarish bosqichiga o‘tish bilan birga uskuna sotib olish uchun imtiyozli kredit miqdorini 100 million so‘mgacha oshirish vazifasi qo‘yilgan. Joriy yilning o‘zida esa tadbirkorlikni rivojlantirish orqali 2 million kishini biznesga jalb qilish, kamida 200 mingta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etish, 90 mingta korxona va 110 mingta yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish ko‘zda tutilgan. Ko‘rinib turibdiki, joriy yilda ham tadbirkorlikni rivojlantirishga davlat tomonidan katta ustuvorlik beriladi.

Joriy yilda hududlarni rivojlantirish maqsadida o‘rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko‘p bo‘lgan tumanlar zamonaviy tus oladi. Aholi punktlari bosh rejalari, 5 ta shaharning bosh rejasi loyihasi ishlab chiqiladi, 48 ta shaharchaning bosh rejasi loyihalari yakunlanadi. Shuningdek, 116 ta qishloq (ovul) sxemalarini shaharsozlik talablariga moslashtirish choralari ko‘riladi.

Bu yilgi davlat dasturida belgilangan vazifalarning o‘z vaqtida bajarilishi, birinchidan, mamlakatimizda yoshlarga e’tibor yanada oshishiga olib keladi. Bu ularning kelajakka ishonchini mustahkamlab, bor imkoniyatlarini ishga solishiga katta rag‘bat beradi.

Shu bilan birga, aholini, xususan, yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish orqali yangicha fikrlaydigan, nafaqat mahalliy, balki xorijiy bozorlar uchun raqobatga javob beradigan mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishga jiddiy turtki beriladi. Bu esa yangi ish o‘rinlari yaratilishi, eksport salohiyati oshishi, foydalanilmay turgan imkoniyatlar ishga solinishiga olib keladi.

Biz va dunyo

GLOBAL STATISTIKADA UYG‘UNLIK

SHAFFOFLIK VA ANIQLIKKA XIZMAT QILADI

Usmon ABDURASULOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi axborot xizmati rahbari

Har qanday mamlakat va coha taraqqiyoti negizida xalqaro hamkorlik hamda integratsiya muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimiz, shu jumladan, uning milliy statistika tizimining vakolatli organi hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ham dunyo hamjamiyatining to‘laqonli a’zosi sifatida turli xalqaro tadbirlarda faol ishtirok etib keladi.

Jahon statistika hamjamiyatining eng oliy organi BMT Statistika komissiyasidir. Komissiya global statistika tizimini, ya’ni BMTga a’zo davlatlarning mazkur soha idoralari rahbarlarini birlashtiradi. Xalqaro statistika faoliyatiga doir standart, konsepsiya, uslubiyatlarni ishlab chiqish va ularni xalqaro milliy miqyosda amalga oshirish bo‘yicha qaror qabul qiladi.

Shuningdek, u BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashining funksional komissiyasi bo‘lib, unga milliy statistika tizimlarini rivojlantirish va ma’lumotlarning taqqoslanuvchanligini ta’minlash, BMT ixtisoslashtirilgan agentliklarining statistika sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirishga hamda statistikani va statistik uslubiyatlarni takomillashtirishga yordam beradi.

Komissiya sessiyalari har yili BMTning Nyu-Yorkdagi bosh qarorgohida o‘tkaziladi va statistika sohasidagi eng yuqori rasmiy xalqaro forum hisoblanadi.

Komissiya 75 yildan ortiq faoliyati davomida statistikaning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha asosiy xalqaro standartlar, konseptual ta’riflar va uslubiy ko‘rsatmalarni ko‘rib chiqish va qabul qilish uchun asosiy platformaga aylandi.

Joriy yilning 27-fevralidan 1-martiga qadar BMT bosh qarorgohida Statistika komissiyasining navbatdagi 55-sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Statistika agentligi delegatsiyasi ham ishtirok etdi. Xalqaro anjuman doirasida mamlakatimiz statistika sohasida kechayotgan islohotlar, statistika idoralari faoliyatidagi o‘zgarishlar, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, tizimda sifatni boshqarishni ilg‘or usullar asosida yo‘lga qo‘yish, jarayonlarni xalqaro statistika uslubiyatlariga mos ravishda amalga oshirish borasida erishilgan natijalar muhokama etildi. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va gender statistikasini yuritish, “Ochiq ma’lumotlar xatlovi” baholashlarida qayd etilgan yutuqlar haqida ma’lumotlar berildi.

Aslida, mamlakatimiz statistika sohasining 2023-yilda erishgan ijobiy natijalari ham uning xalqaro nufuzidan dalolat beradi. Chunki o‘tgan yili O‘zbekiston ochiq ma’lumotlar reytingida 195 mamlakat orasida 70 ball bilan 30-o‘ringa ko‘tarildi hamda Markaziy Osiyodagi peshqadamligini saqlab qoldi. BMT Barqaror rivojlanish yechimlari tarmog‘i va xalqaro ekspertlar tomonidan e’lon qilingan BRM reytingida 71,1 indeks bilan 166 mamlakat orasida 69-o‘rinni egalladi. Open Data Watch tashkilotining so‘nggi hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston “Ochiq gender ma’lumotlari indeksi”da 69,7 ball to‘plagan holda jahondagi eng yaxshi 20 ta mamlakat orasidan joy oldi.

Shuningdek, BMT Statistika bo‘limining rasmiy veb-sahifasida O‘zbekiston Barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha eng ilg‘or tajribalarga ega 87 davlat qatorida turadi. Londondagi Ochiq ma’lumotlar instituti baholash tizimi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Ochiq ma’lumotlar portali (data.egov.uz) “GOLD LEVEL” oltin darajadagi sertifikatini qo‘lga kiritgan.

Dunyoda atigi 3 ta sayt eng yuqori bo‘lgan “Platinum level” darajadagi sertifikatga ega. Ulardan biri O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy saytidir.

Delegatsiya a’zolari BMTning Osiyo va Tinch okeani bo‘yicha ijtimoiy va iqtisodiy komissiyasining Statistika kengashi va Islom hamkorlik tashkilotining Statistika komissiyasi byurolari amaliy muhokamalarida faol bo‘ldi. BMT Statistika departamenti, Open Data Watch, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi, Kanada, Malayziya, Janubiy Koreya, Singapur, MDH va Markaziy Osiyo davlatlari milliy statistika idoralari vakillari bilan ham uchrashuvlar samarali kechdi. Jumladan, Malayziya milliy statistika idoraci bilan o‘zaro hamkorlik va anglashuv memorandumi imzolandi. BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi, Yevrostat va Yevropa erkin savdo uyushmasi 2024-yilning to‘rtinchi choragida O‘zbekiston milliy statistika tizimini global baholashdan o‘tkazadigan bo‘ldi. Tojikiston Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tashabbusi bilan ikki davlat statistika idoralari o‘rtasida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, statistika sohasida o‘zaro hamkorlik va anglashuv memorandumini ishlab chiqib, imzolashga kelishildi.

Ushbu kelishuv natijalari ochiq, do‘stona va samimiy qo‘shnichilik prinsiplariga tayangan holda, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi barcha qo‘shni mamlakatlar bilan statistika sohasida yaqindan hamkorlik aloqalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya va Buyuk Britaniya milliy statistika idoralari bilan faoliyatda sifatni boshqarishning ilg‘or tizimlarini yo‘lga qo‘yish, norasmiy iqtisodiyotni statistik kuzatish uslubiyatini, statistik registrlarni takomillashtirish, Ochiq ma’lumotlar hamjamiyati, Ochiq ma’lumotlar portali va har yili o‘tkaziladigan Ochiq ma’lumotlar sammiti faoliyati bo‘yicha ilg‘or tajribalarni amaliyotda qo‘llash kabi yo‘nalishlarda hamokrlik yanada mustahkamlanadi.

OPEN DATA WATCH

BMT Barqaror rivojlanish yechimlari tarmog‘i va xalqaro ekspertlar tomonidan e’lon qilingan BRM reytingida 71,1 indeks bilan 166 mamlakat orasida 69-o‘rinni egalladi. Open Data Watch tashkilotining so‘nggi hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston “Ochiq gender ma’lumotlari indeksi”da 69,7 ball to‘plagan holda jahondagi eng yaxshi 20 ta mamlakat orasidan joy oldi.

Daraxtlar sanog‘ini amalga oshirishda eng kamida 5 yosh va undan yuqori bo‘lganlari hisobga olindi. Mazkur tadqiqot ishlari barcha viloyat va tumanlar kesimida amalga oshirildi. Jami 254 million 162 ming 505 tup daraxtning koordinatalari aniqlanib, raqamli xaritasi yaratildi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 9-mart, 50-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Dolzarb mavzu

255 MILLIONGA YAQIN DARAXTNING TARJIMAI HOLI BOR

Abdurauf QORJOVOV,
iqtisodiy sharhlovchi

Boshlanishi 1-betda

Muddatsiz moratoriy qanday natija beryapti?

Prezidentimizning 2019-yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoniga binoan, davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarning qimmatbaho navlari kesilishiga 2020-yil 31-dekabrgacha moratoriy e’lon qilingan edi. Keyin uning amal qilish muddati 2021-yil oxirigacha uzaytirildi. Har bir noqonuniy kesilgan daraxt va buta uchun uch yil davomida parvarishlash sharti bilan 100 tup ko‘chat ekish majburiyati belgilandi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 30-dekabrdagi “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalar qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriy amal qilishi muddatsiz davrga uzaytirildi. Hujjatda amaldagi cheklov va majburiyatlar bilan birga, qo‘shimcha ravishda moratoriy talablarini buzganlik uchun huquqbuzarlarga ma’muriy jarimalar miqdori besh barobar, daraxt va butalarni noqonuniy kesish va shikastlantirish bilan o‘simlik dunyosiga yetkazilgan zarar uchun undirish summalari ikki barobar oshirildi. Qolaversa, daraxtlarni har qanday holatda kesish yoki yo‘q qilish to‘g‘risida hukumat farmoyish va hokimlar qaror qabul qilishi taqiqlandi.

Moratoriy talablarini buzgan qurilish-pudrat tashkilotlarining “Shaffof qurilish” milliy axborot tizimidagi darajasi — reyting bahosi bir pog‘ona pasaytiriladi. Buning oqibatida tashkilot bir yil mobaynida o‘z darajasini (reyting bahosini) ko‘tarish imkonidan mahrum bo‘ladi.

Mazkur farmondan so‘ng qanday o‘zgarishlar ro‘y berdi, eng muhimi, uning ijrosi qay tarzda ta’minlanyapti?

— Inspektorlarimiz tomonidan olib borilgan o‘rganishlar natijasida respublika bo‘yicha 2020-yilda daraxt kesish bilan bog‘liq 46 mingta holat aniqlangan. 2023-yilga kelib, bu miqdor 5 mingtaga kamaygan, — deydi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Ekologik nazorat inspeksiyasi bo‘lim boshlig‘i Xurshid Pirov. — Bunda daraxt kesish, ularni shikastlantirish, sug‘ormaslik, parvarish qilmaslik ham hisobga olingan. 2022-yilda 1777 tup qimmatbaho daraxt kesilgan bo‘lsa, o‘tgan yili mazkur holat 1097 taga teng bo‘lgan. Bu daraxt kesish holatlari 2022-yilga nisbatan 40-50 foizga kamayganidan dalolat beradi.

Daraxtlar kesilishi kamayishiga sabab bo‘lgan bir qator omillarni sanab o‘tish mumkin. Birinchidan, jamoatchilik e’tibori va daraxtlarni kesganlik uchun javobgarlik kuchaytirilgani. Shu yil boshidagi tartib bo‘yicha diametri 1 metr bo‘lgan bir tup qimmatbaho daraxtni kesganlik uchun 100 million so‘mga yaqin jarima to‘lanadi.

Vazirlik xodimlari tomonidan olib borilayotgan monitoring natijalariga ko‘ra, 2022-yil kuzi va o‘tgan yilning bahor mavsumida ekilgan ko‘chatlarning 10 millionga yaqini qurigan. Shundan 7,5 millionga yaqini suvsizlik oqibatida shunday holga tushgan. Ularning o‘rnini qoplash maqsadida 2023-yilning kuz mavsumida 92 million tup daraxt ekildi. Ya’ni reja 108 foizga bajarildi.

Mutaxassislar atrof-muhit ifloslanishining asosiy sabablaridan biri sifatida Toshkent shahrini rivojlantirishning tasdiqlangan bosh rejasisiz jadal olib borilayotgan qurilish ishlari ekanini ta’kidlaydi. Ijtimoiy va davlat ahamiyatiga ega bo‘lmagan yangi turarjoy majmualari va boshqa obyektlarni o‘zboshimchalik bilan qurish holatlari kuzatilmoqda. Misol uchun, keyingi besh yilda 5400 ta obyekt — uy-joy, savdo, maishiy va ijtimoiy soha obyektlari (o‘sish 33 foiz) barpo etildi. Binobarin, yangi binolar qurishga moratoriy e’lon qilish rejasi mavjud, ammo bu hali huquqiy jihatdan asoslanmadi.

— So‘nggi ikki yilda, asosan, o‘rniga qurilish tushgan daraxtlar kesilyapti, — deydi Xurshid Pirov. — Bu kabi holatlarning 50 foizdan ko‘pi Toshkent shahrida kuzatilyapti. Masalan, daraxt va butalar kesilishiga qarshi e’lon qilingan moratoriy davrida 49 mingga yaqin daraxt noqonuniy kesilgan. Ularning 10,5 ming tupi qimmatbaho turlar sirasiga kiradi.

Lekin daraxt kesishdan ayrim tadbirkorlik subyektlari qo‘rqayotgani yo‘q. Ular o‘rnida turar joylar va boshqa binolar qurib, kesilgan daraxt jarimasini arzimagan pul to‘lab qutilmoqchi bo‘lyapti. Shu sababli vazirligimiz moliyaviy sanksiya miqdorini oshirishni ilgari suryapti.

Jazo choralari kuchaytirildi

O‘tgan yil yozida kutilmagan holat ro‘y berdi. Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga tegishli o‘zgartishlar kiritilgan va daraxtlarni noqonuniy kesganlik uchun jarima miqdori oshirilishi ko‘zda tutilgan qonun hujjati Prezidentimiz tomonidan rad etildi. Deputat va ekspertlar bunga jarimalar miqdorining kamligi sabab bo‘lishi mumkinligi haqida fikr bildirdi.

— Daraxtni noqonuniy kesganlik uchun AQSHda 100 ming, Fransiyada 150 ming, Saudiya Arabistonida 8 million dollargacha jarima belgilangan, — deb yozgan edi Oliy Majlis quyi palatasi raisi o‘rinbosari Alisher Qodirov. — Bizda bu harakat uchun 1000 dollargacha jarima ko‘zda tutilgan qonun Prezident tomonidan rad etildi. E’tiroz to‘g‘ri, qonunni qayta ko‘ramiz.

“O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun parlament tomonidan qayta ko‘rib chiqildi. Ushbu hujjat joriy yil 1-mart sanasidan kuchga kirdi. Unga asosan, daraxt kesish yoki unga shikast yetkazganlik uchun jazo choralari kuchaytirilgan.

Xususan, MJtKning 79-moddasiga kiritilgan o‘zgartirishga ko‘ra, daraxtlar, butalar, boshqa o‘simlik va nihollarni qonunga xilof ravishda kesgan, kundakov qilgan, shikastlantirgan, yo‘q qilgan yoki boshqa joyga ko‘chirib o‘tkazgan fuqarolar **BHMning 25 barobaridan 50 barobarigacha — 8 million 500 ming so‘mdan 17 million so‘mgacha** (shu paytga qadar BHMning 5 barobaridan 10 barobarigacha), mansabdor shaxslar esa **BHMning 50 barobaridan 75 barobarigacha, ya’ni 17 million so‘mdan 25 million 500 ming so‘mgacha** (shu paytga qadar BHMning 10 barobaridan 20 barobarigacha), mansabdor shaxslarga esa **BHMning 75 barobaridan 100 barobarigacha, ya’ni 25 million 500 ming so‘mdan 34 million so‘mgacha** (shu paytga qadar BHMning 20 barobaridan 30 barobarigacha) miqdorda jarima solishga yoki 15 sutkagacha muddatga ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, MJtKning 79-moddasi to‘rtinchi qism bilan to‘ldirildi. Unga ko‘ra, daraxt va butalarning qimmatbaho navlarini kesishga, kundakov qilishga, shikastlantirishga yoki yo‘q qilishga olib keladigan loyiha hujjatlarini ishlab chiqqan mansabdorlar **BHMning 50 barobaridan 75 barobarigacha, ya’ni 17 million so‘mdan 25 million 500 ming so‘mgacha** jarimaga tortiladi.

Bundan tashqari, “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi qonun 49^{1} va 49^{2}-modda bilan to‘ldirildi. Ya’ni davlat o‘rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarning qimmatbaho navlarini g‘ayriqonuniy ravishda kesganlik, yo‘q qilganlik uchun yuridik shaxslarga nisbatan **BHMning 100 barobaridan 300 barobarigacha (34 million so‘mdan 102 million so‘mgacha)** miqdorda jarima tarzida moliyaviy sanksiyalar qo‘llaniladi.

> Endilikda davlat budjetidan har yili ajratiladigan mablag‘ning kamida 50 foizi “yashil bog‘lar” va “yashil jamoat parklari”ni tashkil qilish uchun “Ochiq budjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan “Mening bog‘im” loyihasini moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

Xorijiy tajribaga nazar

Ma’lumotlarga qaraganda, AQSHda beruxsat daraxt kesganlik uchun jarima miqdori 500 dollardan boshlanib, 10 ming dollargacha yetadi. Ayrim hollarda va ba’zi shtatlarda eng katta jarima miqdori 100 ming dollarni tashkil etadi.

Buyuk Britaniyada 2023-yilgacha o‘rmonlarni beruxsat kesganlik uchun belgilangan jarima miqdori bir daraxt tanasi (poyasi) uchun 2,5 ming funt yoki qo‘lga kiritilgan yog‘och-taxta qiymatining ikki barobari miqdorida jarima to‘lardi. Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunga 2023-yil 1-yanvardan kuchga kirgan o‘zgartishlarga ko‘ra, daraxtni noqonuniy kesgan shaxs ko‘chat ekib, uni 10 yil davomida parvarishlashi lozim. Yo‘q qilingan daraxtzorlarni qayta tiklash bo‘yicha sud qarorini bajarishdan bosh tortganlarga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo tayinlanishi ham mumkin.

Fransiya Shaharsozlik kodeksiga ko‘ra, bino qurish vaqtida daraxtlarni kesganlik uchun huquqbuzarlar qurilish bilan band qilingan maydonning har bir kvadrat metri uchun 6 ming yevrodan jarima to‘laydi. Xuddi shunday huquqbuzarlik takroran sodir etilganida, 6 oygacha ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo ham qo‘llanilishi mumkin. O‘rmondagi diametri 20 santimetrdan kam bo‘lmagan daraxtni o‘zboshimchalik bilan kesish uch yil muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki 45 ming yevro miqdorida jarima bilan jazolanadi.

Germaniyada o‘rmonlar mamlakat hududining 32,7 foizini tashkil etsa-da, o‘zboshimchalik bilan daraxtga zarar yetkazganlik yoki ularni kesganlik uchun jarima miqdori har bir federal yer tomonidan alohida belgilanadi. Qo‘llaniladigan qonunchilik va kesilgan daraxt turiga qarab jarima summasi 50 ming yevrodan 100 ming yevrogacha farqlanishi mumkin. Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha federal qonunga asosan, martdan oktyabrga qadar daraxt kesish, shoxlariga qushlar in qurgan yoki boshqa jonivorlar yashaydigan daraxtlarni kesish esa qat’iyan taqiqlangan.

Saudiya Arabistonining ekologik qonunchiligiga muvofiq, daraxtlarni noqonuniy kesganlik, kundakov qilib tozalaganlik yoki ko‘chirib o‘tqazganlik, shoxlari, ildizini olib tashlaganlik uchun 30 million rial (salkam 8 million AQSH dollari)gacha jarima yoki 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo‘llanilishi mumkin...

Bugungi kunda sayyoramizdagi o‘rmonlarning umumiy maydoni 38 million kvadrat kilometrni, ya’ni quruqlikning uchdan bir qismini tashkil etib, uning atigi 13 foizi muhofaza etiladigan hududlar toifasiga kiradi. Biroq har kuni bu maydonlar muttasil kamayib bormoqda va har soniyada Yer yuzi 1,5 gektardan ortiq tabiiy daraxtzorni yo‘qotmoqda. Hukumatlarning daraxt o‘tqazish bo‘yicha sa’y-harakatiga qaramay, insoniyat har yili 15-18 million gektar o‘rmonni yo‘q qilmoqda.

Mamlakatimizda bu holat sayyoramizdagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan-da yomonroq. Ayni kunda yashil maydonlar yurtimiz hududining o‘n foiziga ham yetmaydi. “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish doirasida har yili 200 million daraxt va buta ko‘chatlarini o‘tqazish vazifasi belgilangan. Buning natijasida yurtimizdagi yashil maydonlar hududi amaldagi 8,6 foizdan 30 foizgacha oshirilishi rejalashtirilgan. Jumladan, 2024-yilda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida kamida 200 million tup manzarali va mevali daraxt hamda butalar ko‘chatini, qalamchalarini ekish, yurtimizda 444 ta yashil bog‘lar barpo etish vazifasi qo‘yilgan.

O‘rmon xo‘jaliklari va “Yashil makon” loyihasini amalga oshirishda investitsiya dasturi mexanizmini qo‘llashga e’tibor qaratiladi hamda 2024-yildan boshlab respublika byudjetidan 500 milliard so‘m ajratib boriladi. Ko‘chatchilikni rivojlantirish va aholini ish bilan ta’minlash maqsadida kasanachilik asosida ko‘chat yetishtirish tizimi joriy etiladi. Unga muvofiq, 2024-yil 1-yanvardan boshlab uy sharoitida yoki kasanachilik asosida daraxt va buta ko‘chatlarini (nihol) yetishtirish faoliyati o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkin bo‘lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) hisoblanadi.

— 2024-yilda o‘rmon fondining 1,5 ming gektarida kasanachilik asosida ko‘chat yetishtirish ishlarini yo‘lga qo‘yish orqali kamida 10 ming aholi bandligi ta’minlanadi, — deydi O‘rmon xo‘jaligi agentligi mas’ul mutaxassisi Dilrabo Boboyeva. — Jismoniy va yuridik shaxslarning buyurtmasi asosida daraxt, buta ko‘chatlarini ekishni tashkillashtirishni qo‘llab-quvvatlash maqsadida elektron to‘lov tizimlaridan foydalanuvchilar va boshqa iste’molchilar tomonidan ixtiyoriy xayriya o‘tkazmalari bo‘yicha xizmat ko‘rsatuvchi “Yashil to‘lov” platformasi joriy qilinadi. Ekologiya vazirligi huzurida yuridik shaxs tashkil etmagan holda “Yashil to‘lov” platformasi orqali respublikada daraxt va buta ekishga aholini keng jalb qilish bo‘yicha “Yashil xayriya jamg‘armasi” tashkil etiladi. Shuningdek, 2024-2026-yillarda Toshkent shahri atrofida jami 441 gektar maydonda “yashil belbog‘”lar paydo bo‘ladi.

Har bir daraxtning pasporti bo‘ladi

Yana bir yangilikdan yaxshi xabardorsiz. Shu kunlarda yurtimizdagi barcha daraxtlar raqamlashtirilib, xatlovdan o‘tkazilmoqda. Toshkent shahrida esa sinov tariqasida daraxtlar pasportlashtiriladi.

Bu ishlar Prezidentimizning 2023-yil 23-noyabrdagi “Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq amalga oshirilmoqda.

Fuqarolik pasporti insonning shaxsini tasdiqlovchi asosiy hujjat bo‘libgina qolmay, g‘urur-iftixor ramzi hisoblanadi. Chunki muayyan mamlakatning fuqarolik pasportiga ega kishi o‘sha davlatning himoyasida bo‘ladi. Mana endi ana shunday himoyaga va qayerda, qanday o‘sayotganiga kafolat beruvchi hujjat daraxtlarga ham berilyapti.

— Mazkur jarayon uch bosqichda amalga oshiriladi, — deydi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va kadastrni yuritish bo‘limi bosh mutaxassisi Amirjon Yo‘ldoshev. — Birinchi bosqichda aerokosmik tasvirlar va dasturiy vositalardan foydalangan holda mavjud daraxtlar to‘liq xatlovdan o‘tkaziladi. Keyin xatlov natijasiga ko‘ra, aniqlangan daraxtlarning turi, yoshi, bo‘yi, holati va joylashuv koordinatini aks ettiruvchi ma’lumotlar bazasi yaratiladi. Shundan so‘ng ma’lumotlar bazasi asosida “Yashil makon” elektron platformasida har bir daraxtga pasport shakllantiriladi va ID raqam beriladi.

Hozirgacha birinchi bosqich doirasida viloyatlardagi yashil qoplama maydoni aniqlandi. Bunda hududlardagi barcha daraxt va butalarning maydoniga sun’iy yo‘ldoshlar orqali olingan fotosuratlardan foydalanib, geoaxborot tizimi orqali ishlov berildi.

Bundan tashqari, vazirlik huzuridagi Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti bilan birgalikda sun’iy yo‘ldoshdan olingan kosmik suratlar, masofadan zondlash, geoaxborot tizimlari hamda sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida yurtimizdagi barcha daraxtlar xatlovdan o‘tkazilib, joylashuv koordinatalari, soni aniqlandi hamda raqamli xaritasi yaratildi. Bunda AQSH, Kanada, Xitoy, Hindiston, Avstraliya, Rossiya, Germaniya va Yaponiya kabi davlatlar tajribasi o‘rganildi.

Daraxtlarni pasportlashtirish jarayoni ularning geoaxborot bazasini yaratish, to‘liq hisobini yuritish, mas’ul idoralarga topshirish, saqlash, parvarish qilish, soni va joylashishiga qarab yangilarini ekish, shuningdek, eskilarining holati hamda turiga qarab almashtirish bo‘yicha qaror qabul qilish, shahar obodonlashtirish ishlarini rejalashtirishda, yer ajratishda daraxtlar haqida aholini batafsil xabardor qilish imkonini beradi.

Ayni paytda pasportlashtirish daraxtlarni noqonuniy kesish ustidan nazoratni kuchaytirish, o‘simlik dunyosiga yetkazilgan zarar miqdorini daraxtning turi va diametridan kelib chiqib hisoblashga asos yaratadi.

Daraxtlar sanog‘ini amalga oshirishda eng kamida 5 yosh va undan yuqori bo‘lganlari hisobga olindi. Mazkur tadqiqot ishlari barcha viloyat va tumanlar kesimida amalga oshirildi. Jami 254 million 162 ming 505 tup daraxtning koordinatalari aniqlanib, raqamli xaritasi yaratildi.

2-3-bosqichlarda xatlov ishlari inspektorlar tomonidan joyiga chiqqan holda amalga oshirilmoqda. Bunda “Yashil makon” elektron platformasi takomillashtirilib, daraxtlar xatlovi bo‘yicha ularning reyestr tizimi joriy etildi. Ushbu tizim orqali maxsus planshetlar yordamida daraxtlarning turi, diametri, holati, koordinatasi, fotosurati va mas’ul tashkilot to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritib borilmoqda. Hozirgi kunda respublika bo‘yicha jami 200 mingdan ortiq daraxt xatlovdan o‘tkazilib, ma’lumotlar elektron platformaga kiritildi.

Kunlik daraxtlar xatlovi natijasini yashilmakon.eco veb-sayti orqali kuzatib borish imkoniyati yaratilgan. Bundan tashqari, sinov tariqasida Toshkent shahridagi daraxtlarni raqamlashtirish orqali ularni pasportlashtirish uchun 100 komplekt qurilmalar xarid qilinmoqda. Daraxtlarni pasportlashtirish ishlari natijasi ularga ID raqam berish orqali “Yashil makon” elektron platformasida aks ettirib boriladi.

Farmonga ko‘ra, endilikda davlat budjetidan har yili ajratiladigan mablag‘ning kamida 50 foizi “yashil bog‘lar” va “yashil jamoat parklari”ni tashkil qilish uchun “Ochiq budjet” axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan “Mening bog‘im” loyihasini moliyalashtirishga yo‘naltiriladi.

Bu jarayonda aholi tashabbusi bilan “yashil bog‘lar” va “yashil jamoat parklari”ni tashkil qilish bo‘yicha maydon manzili va rasmlari ko‘rsatilgan holda qiymati 250 million so‘mdan oshmagan taklifni ilgari surish mumkin bo‘ladi. Loyihalarni shakllantirish va ularga ovoz berish jarayoni har yili yanvar-fevral oylarida o‘tkaziladi.

Farmonga muvofiq, avtomobil, temir yo‘l, daryo va kanallar yoqalari, davlat organlari va tashkilotlari yer uchastkalarining foydalanilmayotgan qismida (o‘rmon fondi yerlari bundan mustasno) “yashil bog‘lar” ushbu yerlarning egalari, foydalanuvchilari hamda tashabbuskor jismoniy va yuridik shaxslar o‘rtasida 10 yilgacha tegishli shartlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuziladigan ikki tomonlama shartnoma asosida barpo etiladi. Yer uchastkalari respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga “yashil bog‘lar” yaratish uchun doimiy foydalanish huquqi asosida beriladi.

Islohot odimlari

AYOLNI ULUG‘LASH

oilani, Vatanni, kelajakni ulug‘lash demakdir

Uchqun O‘ROQOV,
iqtisodiyot fanlari nomzodi

Boshlanishi 1-betda

Ayolni e’zozlash, unga ehtirom ko‘rsatish o‘zbek xalqiga xos olijanob xususiyatlardan. Shu ma’noda, yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik tarixiy va salmoqli ishlar qilinmoqda. Ayollarning jamiyatdagi o‘rni va roliga yuqori baho berib, huquq va manfaatlarini himoya qilish, bilimdon, zamonaviy mutaxassis, malakali kasb egalari bo‘lishi hamda sog‘lom va mustahkam oila qurishi uchun zarur shart-sharoit yaratish, birinchi navbatda, sog‘lom bola tug‘ilishi, uni tarbiyalash, onalar va bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilish davlatimiz hamda jamiyatimizning doimiy e’tiboridagi eng ustuvor vazifadir.

Millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, shubhasiz, oilaning, oilada esa ayolning o‘rni va ta’siri beqiyos. Chunki insonning eng sof, pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvuri, birinchi galda, oila bag‘rida va ona tarbiyasi bilan shakllanadi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni, oilaga munosabati, ijtimoiy hayotdagi roli g‘oyat muhim ahamiyatga egaligi bois, ularning mavqei har jihatdan yuqori baholanmoqda. Xotin-qizlarning erkaklar bilan barcha sohada tengligini ta’minlash, ularni ulug‘lash va qadrlash, qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan milliy tizim yaratildi.

O‘zbekiston ayollar huquqining xalqaro me’yor va huquqiy standartlarga muvofiqligini ta’minlash maqsadida Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi, Ayollarning siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi, Onalikni muhofaza qilish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyalarga qo‘shildi. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar qabul qilindi. Shuningdek, qonun hujjatlarining majburiy gender-huquqiy ekspertizasi joriy etildi.

Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni kafolatlashning asosiy prinsiplari mavjud bo‘lib, bular qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo‘yicha kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi, ochiqlik va shaffoflikdir. Xalqaro hamjamiyatda munosib o‘ringa ega bo‘lgan O‘zbekistonning davlat va jamiyat sifatidagi taraqqiyoti silsilasida ayolning o‘rni, siyosiy va huquqiy madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi.

2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori bilan tasdiqlangan “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalar”ning 5-maqsadi — gender tenglikni ta’minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta’minlashga qaratilgan islohotlar bilan hamohangdir.

Ushbu maqsadga erishish doirasida xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakliga barham berish, ular siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha bosqichida har tomonlama ishtirok etishini hamda qaror qabul qilishda yetakchilardan bo‘lishida teng imkoniyatni ta’minlash, reproduktiv salomatlikni asrash sohasida umumqamrovli tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatish uchun sog‘liqni saqlash xizmatlaridan umumiy foydalanishni ta’minlash kabi vazifalar belgilandi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida Oliy Majlis Senati tomonidan 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlandi.

Sa’y-harakatlarning mantiqiy davomi sifatida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga doir qator maqsad va vazifalar belgilangan. Jumladan, jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash ko‘zda tutilgan.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, **mamlakatimizda bo‘lg‘usi onalar, kelajak tarbiyachilari bo‘lmish qizlarimiz kamolotiga, ularning oliy ta’lim olishi, zamonaviy kasb-hunar va texnologiyalar, xorijiy tillarni egallashiga katta ahamiyat berilmoqda.**

Bundan 6 yil avval OTMlarda 110 ming atrofida xotin-qiz tahsil olgan bo‘lsa, hozir ular soni 653 mingdan ziyodni tashkil etmoqda. Shu tariqa bugun oliygohlarda o‘qiyotgan 1 million 300 ming nafarga yaqin talabaning yarmidan ko‘pi qizlar ulushiga to‘g‘ri keladi. Yangi tartibga muvofiq, magistraturada o‘qiyotgan 10 mingdan ortiq talaba qiz uchun 68 milliard so‘mdan ziyod kontrakt pullari davlat tomonidan to‘lab berildi. 181 ming 500 nafardan ortiq qizlarimiz uchun imtiyozli ta’lim kreditlari ajratildi. Bu ham qizlarning ilm olish, kasb egallashga ishtiyoqini oshiradi, jamiyatimizda

ziyoli ayollar safi kengayishiga xizmat qiladi. Ayollarimiz intellektual salohiyati, chuqur bilimi va izlanishlari bilan ilm-fan rivojiga ham munosib hissa qo‘shmoqda.

Ehtiyojmand oilalarga mansub 1914 nafar xotin-qiz OTMlarga qo‘shimcha davlat granti bo‘yicha o‘qishga qabul qilindi. Mutaxassisligi bo‘yicha 5 yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan 500 dan ortiq xotin-qiz oliygohlarga alohida kvota asosida o‘qishga kirdi. Har yili 50 qizni nufuzli xorijiy oliygohlarga bakalavriat va 10 nafarini magistraturaga yuborish yo‘lga qo‘yildi. Har bir viloyatda ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo‘qotgan 150 qizning shartnoma puli mahalliy byudjetdan to‘lab berilmoqda. Endi har bir qizning qalbida oliy o‘quv yurtida tahsil olishga ishtiyoq jo‘sh urmoqda.

Ayollarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishdagi ishtirokini to‘laqonli ta’minlash, ijtimoiy-iqtisodiy hamda huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash borasidagi islohotlar yurtimizda gender tenglik va teng huquqlilikdagi ijtimoiy adolat namunasidir. Bugun xotin-qizlarimiz qadami tegmagan joy, ular egallamagan soha qolmadi hisob. Ular o‘qituvchilik, tadbirkorlik, fermerlik, harbiylik, umuman, barcha sohada faollik ko‘rsatyapti. Qanchadan-qancha soha va tarmoqlarda rahbarlik lavozimlarini egallayotgan xotin-qizlar soni muntazam ortib boryapti. Tashabbuskor va faol ayollardan 2 mingga yaqini davlat va jamoat tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida xizmat qilmoqda.

Xotin-qizlar bilim va tajribasi, professional malakasi va mahorati bilan ko‘pgina jabhalarda ilg‘or, hatto yetakchi mavqelarni egallayapti. Bugun opa-singillarimiz qalbida jo‘sh urayotgan shukronalik, minnatdorlik hissi amaliy faoliyatga ko‘chib, har sohada yuksak natijalarga erishishga ruhlantirmoqda. Ana shunday yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlik natijasida xotin-qizlarning orzu-intilishlari ro‘yobga chiqib, intiluvchan va tashabbuskor ayollar turli sohalarda yuksak natijalarga, ulkan muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Mamlakat va jamiyat hayotida faollik hamda tashabbuskorlik ko‘rsatgan, samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi, farovonligi mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo‘shgan oddiy xotin-qizlarimiz ham hech qachon e’tibordan chetda qolayotgani yo‘q. Bunday xotin-qizlar uchun “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni ta’sis etilgani, “Yil ayoli”, “Ibratli oila” tanlovlari o‘tkazilayotgani yurtimizda ayollarga naqadar katta hurmat va ehtirom ko‘rsatilayotganining yana bir tasdig‘idir.

O‘zbekiston — iste’dodlar yurti. Yoshlarimiz orasida har sohada yuqori natijalarga erishayotgan qizlar juda ko‘p. Ana shunday qizlarimizni rag‘batlantirish, yuksak yutuqlar sari ilhomlantirishda Zulfiya nomidagi davlat mukofoti katta o‘rin tutadi. Ilgari ushbu mukofotni qo‘lga kiritish uchun yosh chegarasi ancha kichik, g‘oliblar soni ham cheklangan edi. Endi mukofot ta’lim, fan, adabiyot, madaniyat, san’at, sport va jamoatchilik faoliyatida alohida yutuqlarga erishgan o‘n to‘rt yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan iqtidorli qizlarga har yili Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan ikki nafardan talabgorga beriladigan bo‘ldi. Bu ham sohasi va yo‘nalishida

ulkan yutuqlarga erishayotgan qizlarimizga katta imkoniyat yaratmoqda, iqtidorlilar safini yanada kengaytirmoqda.

Yangi O‘zbekiston siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ayollar uchun nimaiki zarur bo‘lsa, barchasini muhayyo qilishga, nozik yelkasidagi og‘ir yuklardan xalos etishga, umuman, barcha islohotlarning markazida ayollar va bolalar turishi, ularga har tomonlama g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni ta’minlashga katta e’tibor qaratilmoqda. Xotin-qizlarning hayot va mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularga daxldor ijtimoiy muammolarni hal etishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Jumladan, “Ayollar daftari” doirasida katta tadbirlar amalga oshirilmoqda. Qisqa muddatda salkam 700 ming ayolga amaliy yordam ko‘rsatilgan. Dastur doirasidagi chora-tadbirlar natijasida yuz minglab xotin-qizning bandligi ta’minlandi. 233 mingdan ziyod ayolga 4 trillion 700 milliard so‘m kredit ajratildi. 252 mingdan ortiq xotin-qiz mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitildi.

Prezidentimiz qaroriga ko‘ra, Xotin-qizlarni va oilani qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi sifatida qayta tashkil etilib, endi “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minlash, ijtimoiy himoya qilish imkoniyati yanada kengaydi. Oxirgi 2 yilda 14 mingga yaqin xotin-qizning uy-joy sharoiti yaxshilandi, qariyb 7 ming ehtiyojmand xotin-qizning ijara to‘lovi qoplab berildi.

Ayollarga yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlarning sanab, adog‘iga yetish qiyin. Ammo yana bir jihat borki, u haqda to‘xtalib o‘tmaslik mumkin emas. Bu millatimiz kelajagi, naslimiz tozaligining muhim omili bo‘lgan salomatlik bilan bog‘liq. Faqat sog‘lom onadan sog‘lom farzand tug‘iladi. Ruhiyati sog‘lom, aql-zakovatli, ma’rifatli onalargina komil farzandlarni tarbiyalashga qodir. Ana shu haqiqatni chuqur anglagan holda xotin-qizlar salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk yosh avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan, uzoqni o‘ylab, puxta ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturi hayotga izchil joriy etilayotir.

Hozir barcha hududda perinatal, skrining, reproduktiv salomatlik va diagnostika markazlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ko‘p tarmoqli poliklinika va qishloq oilaviy poliklinikalari soni ortib bormoqda. Ushbu tibbiyot maskanlarida ayollar va qizlar yil davomida chuqurlashtirilgan ko‘rikdan o‘tkazilib, ularga doimiy patronaj xizmati ko‘rsatilmoqda. Bu esa onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash uchun zamin yaratayotir. Xotin-qizlarda uchraydigan kasalliklarni barvaqt aniqlash va davolash ishlari samarali tashkil etilayotgani tufayli ayollar o‘rtasida kasalliklar qariyb 2 barobar, onalar o‘limi 3 barobar, go‘daklar o‘limi salkam 4 barobar kamaydi.

Bugungi globallashuv jarayonida yangi avlodning har qanday sharoitga nisbatan faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalasida xotin-qizlarning o‘rni va roli har qachongidan-da muhim. Shu bois, islohotlarning asosiy mazmuni ham xotin-qizlarning yangi g‘oya va tashabbuslar bilan chiqishlarini qo‘llab-quvvatlash, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar, o‘zgarishlar va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ularning faol ishtirok etishini ta’minlashdan iborat. Zero, inson qadrini ulug‘lash, avvalo, ayolga hurmat va ehtirom, mo‘tabar onalarimizni e’zozlash, munis opa-singillarimizni qadrlash orqali ro‘yobga chiqadi, desak ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Dunyoda davlat va jamiyatning nufuzi, ongu tafakkuri, madaniy darajasini ko‘rsatadigan mezonlar ko‘p. Lekin har qaysi millat va xalqning ma’naviy kamolotini belgilovchi, ta’lim-tarbiyasini takomillashtiruvchi ayoldir. U jonkuyar ona, jufti halol, mohir uy bekasi. Qanchadan-qancha buyuk insonlar ortida ona tarbiyasi turibdi. Oila mustahkamligini ta’minlashda ham ayolning o‘rni beqiyos.

Qolaversa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham xotin-qizlar haq-huquqlari himoyasini mustahkamlash bo‘yicha alohida modda va normalar belgilandi. Bu esa, shubhasiz, ularning huquq va manfaatlarini himoyalash, hayotini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Yangicha yondashuvlar

AMALIYOT UCHUN HAQ TO‘LASH

TALABAGA HAM RAG‘BAT, HAM ISHONCH

Jonibek TAVAKALOV,
Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi ijrochi direktori

Har bir inson o‘zining muvaffaqiyat kalitini topishida qobiliyati va shaxsiyatiga mos kasbni tanlash muhim o‘rin tutadi. To‘g‘ri tanlangan kasb-hunar — kelajakdagi ishonch, xotirjamlik va moddiy farovonlik, demak. Kasbini sevuvchi inson unga mas’uliyat bilan yondashib, vazifalarini puxta bajaradi, sohaning ichida yashashni boshlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, jamiyat rivojiga ham bevosita hissa bo‘lib qo‘shiladi.

Kasbni to‘g‘ri tanlash uchun inson o‘smir yoshidayoq qiziqishi, salohiyati va kelajakda o‘zini qaysi sohada ko‘ra olishini tahlil qilishi zarur. Shuningdek, kelajakda ishsizlikdan aziyat chekib, iqtisodiy muammolarga duch kelmaslik uchun yana bir muhim omil bu — mehnat bozoridagi vaziyatni o‘rganish va yo‘nalishiga mos oliy ta’lim muassasasini tanlash. Zero, mehnat bozoridagi vaziyatni o‘rganmaslik kadrlar tayyorlashdagi nomutanosiblikka va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida mutaxassislar yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin. Shuni ta’kidlash joizki, oliy ta’lim muassasalarida yosh mutaxassislarni tayyorlash sifati nafaqat talabalarning nazariy o‘quv kursi davomida olgan bilimiga, balki bilim va ko‘nikmalarini amalda qo‘llash va mustahkamlash, ishlab chiqarish va amaliy mashg‘ulotlar davomida oshirgan tajribasiga bevosita bog‘liq. Potensial ish beruvchilarning ustuvor talablaridan biri ham xodimning kasbiy malakasi ekanini hisobga olsak, malaka amaliyoti talabalarga o‘z salohiyatini baholash, o‘qish jarayonida o‘z ustida ko‘proq izlanib, kamchiliklarini tahlil qilgan holda ularni bartaraf etish imkonini beradi.

Kadrlar tayyorlash jarayonida muhim bo‘lgan malaka amaliyotini yanada takomillashtirish yuzasidan endilikda yurtimizda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-yanvardagi “Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarining haq to‘lanadigan malaka amaliyotini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, oliy ta’lim muassasalari talabalarining iqtisodiyot tarmoqlari korxonalarida haq to‘lanadigan ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish tartibi yo‘lga qo‘yiladi. Ushbu tartib Prezidentimizning 2023-yil 3-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash hamda talabalarning nazariy bilimini amaliyotda mustahkamlash, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash darajasi va sifatini oshirish, shuningdek, amaliyot o‘tash davrida qo‘llab-quvvatlash maqsadida joriy etildi.

Qarorga ko‘ra, mazkur amaliyot to‘qqiz bosqichli tanlov asosida tashkil etiladi. Tanlovning dastlabki bosqichida vazirlik hududiy boshqarmalarida Maxsus komissiya tuziladi. Komissiya o‘z yo‘nalishida kamida ikki yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan yuqori malakali (turli vazirlik, idora, ilmiy va ilmiy-tadqiqot muassasalaridan ham kelishuv asosida jalb etilishi mumkin) kamida 7 nafar (toq sonli) a’zodan iborat tarkibda tuziladi. So‘ng hududlar, sohalar, oliy ta’lim muassasalari kesimida amaliyot o‘tash uchun o‘rinlarni ajratadi hamda tanlov to‘g‘risida veb-saytda e’lon beradi. Vazirlik tomonidan har yili tanlovni tashkil etish bo‘yicha hududlar, sohalar va oliy ta’lim muassasalari kesimida amaliyot o‘tash uchun 500 ta o‘rin ajratiladi.

Talabalar tanlovda ishtirok etish uchun arizani o‘zi ta’lim olayotgan oliy ta’lim tashkilotiga tegishli hujjatlari bilan pochta orqali yoki elektron shaklda taqdim etadi. Tanlovda qatnashish uchun esa talaba bitiruvchi bosqichda tahsil olayotgan ta’lim yo‘nalishi (yoki mutaxassisligi) tarmoq korxonasidagi faoliyat yo‘nalishiga mos va u O‘zbekiston Respublikasining rezidenti bo‘lishi zarur.

Maxsus komissiya yo‘llanma xati bilan taqdim etilgan arizalarni ko‘rib chiqib, talabalarning ish rejasi himoyasini o‘tkazadi hamda tanlov bo‘yicha yakuniy qaror qabul qiladi. Talabalarga oliy ta’lim muassasasidan va qabul qiluvchi tashkilotdan amaliyot rahbarlari biriktirilib, ular amaliyot davomida talaba tomonidan amaliyot dasturining o‘z vaqtida bajarilishini nazorat qiladi va unga amaliy yordam ko‘rsatadi.

Qarorga asosan, talabalarning amaliyoti bo‘yicha xarajatlarni qoplab berish vazifasi Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga yuklatilgan. Qarorning yana bir muhim jihati shundaki, ishlab chiqarish amaliyotini namunali o‘tagan talabalarni o‘qishni tamomlaganidan so‘ng ushbu tashkilotlarning o‘zida yoki ularning hududiy bo‘linmalarida ichki imkoniyatdan kelib chiqib, ish bilan ta’minlashga tavsiya etiladi.

Ushbu tartib qo‘llanishidan kelib chiqishi kutilayotgan samarani tahlil qilib ko‘radigan bo‘lsak, avvalo, amaliyot o‘tash jarayoniga moddiy munosabatlarning kiritilishi ikki tomonga ham alohida mas’uliyat yuklaydi. Amaliyot o‘tash jarayoni faqat qog‘ozdagi rasmiyatchilikda qolib ketmaydi. Qabul qiluvchi tashkilot tomonidan nazorat va talab kuchaytiriladi. Talaba esa o‘z ustida ko‘proq ishlashga, o‘qish davomida kerakli bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishga harakat qiladi.

Tanlov jarayoni talabalar o‘rtasidagi sog‘lom raqobatni kuchaytiradi. Ochig‘ini aytganda, talabaga o‘zi tahsil olayotgan sohada tajriba orttirish, sohani ich-ichidan o‘rganish bilan bir qatorda mehnatining moddiy rag‘batlantirilishi unga yanada ko‘proq motivatsiya berishi tabiiy. Bundan tashqari, bu talabalarning o‘ziga ishonchi ortishiga ham sabab bo‘ladi.

Mehnat bozorida hali o‘z o‘rnini topishga ulgurmagan yoshlar o‘z bilimini amalda sinab ko‘rishni va bunga baho berilishini xohlaydi. Ko‘pincha haq to‘lanmaydigan amaliyot talabaga ketgan vaqti va mehnati beqadr bo‘lishi tuyg‘usini berishi mumkin. Yo‘nalishi bo‘yicha ishlab chiqarish korxonasida qisqa muddat bo‘lsada, faoliyat olib borgan talabaning moddiy rag‘batlantirilishi uning sohaga bo‘lgan qiziqishi va o‘ziga ishonchini yanada kuchaytiradi. Ruhlangan amaliyotchining kelajakda ko‘proq ishlab, yanada kattaroq marralarga erishib, mehnati uchun munosib oylik maosh olishiga bo‘lgan ishonchi ham ortadi.

Bu borada xorij tajribasini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ushbu amaliyot AQSH, Xitoy, Kanada, Yaponiya, Malayziya kabi rivojlangan davlatlarda keng qo‘llaniladi. Misol uchun, AQSHning yetakchi universitetlarida iqtidorli va izlanuvchan talabalar maxsus biriktirilgan professor-o‘qituvchilar tomonidan saralab olinib, turli sanoat loyihalarida ishlash uchun haq to‘lanadigan amaliyotga jalb qilinadi. Amaliyot muddati 4 oydan 18 oygacha davom etishi mumkin. Loyihalar orasida, ayniqsa, tibbiyot, marketing, muhandislik, texnologiyalar kabi sohalarga tegishlilari juda ko‘p uchraydi.

Talabalar har yili minglab shu kabi dasturlarda qatnashib, tanlagan yo‘nalishi bo‘yicha muhim tajribaga ega bo‘lgani, ish jarayonida duch kelinadigan real muammolarga o‘qish jarayonida orttirilgan bilim va ko‘nikmasi asosida yechim topishni o‘rgangani, jamoa bo‘lib ishlash sirlari va ish joyidagi muomala madaniyatini puxta o‘zlashtirgani, yanada rivojlanish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy rag‘batlangani haqida ijobiy fikr bildiradi. Haq to‘langan muvaffaqiyatli amaliyot dasturlari orasida dunyoga mashhur IBM, ScotiaBank, Rogers va shu kabi yuzlab yirik kompaniyalar loyihalari mavjud.

O‘rganish va izlanishlardan kelib chiqib shuni ayta olamizki, Prezidentimiz tashabbusi asosida ishlab chiqilgan ushbu qaror ijrosi to‘liq yo‘lga qo‘yilib, tizimli va sifatli ravishda olib borilsa, mamlakatimiz rivoji uchun o‘ta muhim hisoblangan kadrlar tayyorlash dasturida samarali islohot kuzatilishi shubhasiz.

2024-yil 9-mart, 50-son

Cho‘lpon she’riyatida istiqlol haqidagi armon-u orzular xayol, kishan, bulut, yulduz, tong singari poetik ramzlar vositasida betakror badiiy talqin etilgan. Bir she’rida shoir “chechaklar ungusi ko‘z yoshlarimdan” deganidek, uning she’rlari ko‘ngillarda ozodlik chechaklari unishiga zamin bo‘ldi. Bugungi ozod va obod kunlar uchun Cho‘lpon va cho‘lponlar oldida qarzdormiz.

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Moziy — haqiqatning tarozisi

Abdulhamid CHO‘LPON:

“MEN YURTIMNING POK ISTAKLI KUCHIMEN...”

Nurboy JABBOROV,
filologiya fanlari doktori, professor

Yangi o‘zbek she’riyatida Abdulhamid Cho‘lponning mavqei alohida. Ulug‘ shoir dolg‘ali dengiz to‘lqinlari yanglig‘ ko‘pirib-toshgan tuyg‘ularini, bamisoli sarobday yetib bo‘lmas orzularini, ko‘nglini o‘rtagan cho‘ng armonlarini poetik ramzlar tiliga ko‘chirdi. Zarif Bashiriy ta’biri bilan aytganda, “Chin yurak va his shoiri” o‘laroq millatning yuragini istibdod zanglaridan tozalamoq istadi, uning his-tuyg‘ularini istiqlol yolqini bilan yoritdi. “Buloqlar” to‘plami chop etilishi munosabati bilan zamondoshi Vadud Mahmud “Cho‘lpon o‘zbekning yangi shoiridir. Shuning uchun o‘zbek elining bu kungi ruhi, holi, sezgisi “Buloqlar”da qaynaydir. O‘zbek tili, o‘zbek ohangi “Buloqlar”da sayraydir, o‘quydir. O‘zbekning ruhiy to‘lqinlari bunda ko‘puradir, ko‘klar tomon uchadir, ko‘tariladir”, deganida yuz karra haq edi.

Ma’rifatparar jadidlarning eng katta orzusi istiqlol bo‘lgani ayon. Xo‘sh, milliy istiqlol haqidagi orzularini Cho‘lpon qanday ramz va timsollar orqali ifoda etdi? Ulardan ayrimlarini tahlil etishga harakat qilamiz. Bizningcha, ulardan birinchisi — xayol. Shoir nazdida xayol — millatning ozodligi, yuksalishini ifodalovchi poetik ramz. Ushbu poetik ramz Cho‘lpon she’riyatida qanday mazmunni ifodalaydi. Ayon haqiqat shundaki, vujudni zanjirband etish mumkin, lekin xayolni emas. Eng og‘ir mustamlaka zamonlarida erkinligini saqlab qolishi mumkin bo‘lgan yagona narsa bu xayol edi. To‘g‘ri, xayolga kishan solmoq mahol. Biroq u ko‘kka uchsa, havoga sovrilsa-chi? Cho‘lponning mana bu satrlarida aks etgan iztirobning sababi shunda:

Keng xayollar uchdimi ko‘kka
Butun umidlarim yovlarmi ko‘mdi.

“Yo‘l esdaliklari”da Cho‘lpon mana bunday yozadi:

“Uzatg‘uchi yo‘q...
O‘zim yolg‘iz...

Eng yaqin do‘stlarim deb ishonib yurgan kishilarim “xayr”dan boshqani bilmadilar: uzatib qo‘yishning kerak ekanligi to‘g‘risida o‘ylarig‘a tariqcha bir narsa keltirmaganlarga o‘xshadi. Ko‘ngilsiz, tushunki ruh bilan chiqib ketdim. Yolg‘izlik, o‘rgangan yerdan ayrilish og‘irlig‘i bir ozg‘acha meni ezib bordi, bir ozg‘acha qiynaldim. Birozdan so‘ng eski tanishim “xayol” ko‘magimga yetdi: o‘zim uning bilan keng ko‘kning yumshoq ko‘rpalari ustida ag‘anag‘on choqda, gavdam charchash, toliqish sezmasdan ilgari otilar edi”.

Darhaqiqat, xayol Cho‘lponning “eski tanish”i, ruhi tushgan kezlarda ko‘ngliga taskin beruvchisi, yolg‘iz qolganda sodiq yo‘ldoshi, ezilgan, qiynalgan paytlarda tasallini undan oladi. Chunki xayol, ayniqsa, ijodkorning eng yaqin do‘sti. Xayol orqali u butun olamni, yetti ko‘kni sayr eta oladi. Xayol orzu-ideallariga qanot bag‘ishlaydi. Cho‘lpon “...uning bilan keng ko‘kning yumshoq ko‘rpalari ustida ag‘anag‘on choq”larini eslashi shundan.

Xayol qachon odamga quvvat beradi? Qachonki, real voqelikka aylansa... Aks holda u ko‘ngilga yupanch bo‘la olmaydi. Xayol, orzu voqelikka aylanmas ekan, maqsadga erishmoq dushvor. Binobarin, o‘y-xayolning o‘zigina ko‘ngil istagini qondirmasligi ayon. Mana bu misralar ana shunday kayfiyat samarasi o‘laroq ijod etilgan:

O‘ylangan o‘ylar-la ko‘ngil yupanmas,
Ko‘ngilning istagi o‘y bilan qonmas,
Aytsalar bu tunda yorug‘ sham yonmas,
Chaqmasa gugurtni asl o‘g‘lonlar.

“Cho‘lpon shuurida qanday qutlug‘ niyatlar tug‘ilgan, boshida qanday olijanob o‘ylar charx urgan bo‘lmasin, shoir ko‘ngli faqat bir narsadan — Turkiston o‘g‘lonlarining gugurt chaqib, tunni yoritishlaridan munavvar bo‘lishi mumkin edi”, deb yozadi ushbu satrlarni tahlil etar ekan akademik Naim Karimov. Ustoz olim Cho‘lpon Anvar Poshoni ana shunday o‘g‘lonlardan biri deb bilgani, uning mustamlakachilar armiyasi bilan bo‘lgan qaqshatqich kurashda halok bo‘lganidan astoydil qayg‘urgani haqida yozadi. Bu fikr ham Cho‘lpon she’riyatidagi o‘y, xayol timsollari zamirida Vatan ozodligi g‘oyasi yashiringanini tasdiqlaydi.

Kishan — istibdod iskanjasidagi yurt ramzi. Cho‘lpon eng faol qo‘llagan bu poetik ramz orzudan ko‘ra ko‘proq armonni ifodalagan. Zero, kishan va ozodlik birgalikda mavjud bo‘la olmaydi. Ulardan birining borligi o‘z-o‘zidan ikkinchisini inkor etadi. Vujud ham mayli, ko‘ngil kishanlangan bo‘lsa-chi? Fojia bundan ham ortiq bo‘lmas:

Ko‘ngil, sen munchalar nega
Kishanlar birla do‘stlashding?!
Na faryoding, na doding bor,
Nechun sen muncha sustlashding?!

Cho‘lpon — novator shoir. Yangi o‘zbek she’riyati yuzaga kelishida uning xizmatlari beqiyos. Ushbu satrlar, aslida, aruzda — hazaji musammani solim vaznida yozilgan. Lekin she’r shoir to‘plamlarida barmoqdagi kabi bandlarga bo‘lingan holda grafik shakllantirilgan. Shoirning bu harakati amalda barmoq vazniga o‘tish uchun tayyorgarlik edi. Ta’bir joiz bo‘lsa, jadidlar yangi o‘zbek she’riyatiga o‘tish jarayonini ana shunday ijodiy eksperimentlardan boshlagandi.

Endi she’rdagi “kishan” ramzi tahliliga o‘tamiz. Chin shoir ko‘ngli armonlar iskanjasida qolib ketishi mumkin emas. Bu armon zamiridan orzu o‘sib chiqishi aniq. Zero, orzudan mosuvo insonning qanoti qayrilib qoladi, kelajakka bo‘lgan umidi so‘nadi. Ma’rifatparvar jadidlar ana shundan saqlana bildi. Ko‘ngillarga titroq soluvchi asarlarida nainki o‘z qalb istaklarini, millatning orzularini ifodalashga muvaffaq bo‘ldi. Yuqoridagi she’rning “Kishanlar parchalanmasmi? Qilichlar endi sinmasmi?!” kabi misralarida ayni shu fazilatni ko‘rish mumkin. Binobarin, Cho‘lponning “Kishan kiyma, bo‘yin egma, Ki, sen ham hur tug‘ilg‘onsen!” degan so‘zlari faqat o‘z ko‘ngliga emas, istibdod iskanjasidagi millatga qarata aytilgan o‘tli xitob edi.



“Kishan” sarlavhali she’rida shoir bu poetik ramz mohiyatini yanada ta’sirchan ifodalaydi. She’rda kishan erkinlikning ziddi o‘laroq umumlashma timsol darajasiga ko‘tarilgan. Shoir mana bunday yozadi:

Kishan, gavdamdagi izlar
bukun ham bitgani yo‘qdir!
Temir barmoqlaringning dog‘i
butkul ketgani yo‘qdir.

She’rning 1922-yili yozilgani e’tiborga olinsa, unda muallifning sho‘rolar siyosati avjga minayotgan kezlardagi o‘ylari ifodalangani ayon bo‘ladi. Shoir “bashar tarixining har sahfasida qonli dog‘” qoldirgan, “yumilmas ko‘zlarining har biri bir elni qahr aylaydigan” kishandan millatni ozod etmoq istaydi. “Kishan — she’rda qullikni anglatuvchi ramziy obrazdir”, — deb yozadi O‘zbekiston Qahramoni, adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov. — “Ammo lirik qahramon shu mudhish va manxus kishan qarshisida dag‘-dag‘ qaltiramaydi, balki unga nafratini oshkor etib, undan butkul qutulmoqqa ishonch bildiradi”.

“Qo‘zg‘alish” she’rida ham kishan erksizlik ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Lekin shoir she’rda tasvirlangan ruhiyatdan kelib chiqib, bu kishanni zang bosgani, uning uzilish vaqti kelgani haqida yozadi:

Kishanlaring zang bosgandir,
sergak bo‘lkim, uzilur,
Tomirimda qo‘zg‘alishning
vahshiy qoni gupurdi.
Eski fikr, an’analar endi butkul uzildi,
Yo bitarman, yoki sening
saltanating buzilur.

Zamirida zulm va haqsizlikni ifodalagan kishan timsoli Vatani va millatini istibdod iskanjasida ko‘rgan Cho‘lpon qalbidagi adadsiz anduh, cheksiz iztirob tuyg‘ularini tajassum etgani bilan shoir she’riyatida alohida o‘rin tutadi.

Bulut — shoir dardlarini, armonlarini ifodalagan yana bir muhim poetik ramz. Quyosh nurini, yorug‘likni to‘sishi jihatidan bu ramz ham mustamlaka yurtning og‘ir ahvolini ifoda etadi:

Ey, tog‘lari ko‘klarga
salom bergan zo‘r o‘lka,
Nima uchun boshingda
quyuq bulut, ko‘lanka?

“Men shoirmi” she’rida xayol va bulut ramzlari uyg‘unlikda tasvirlangani kuzatiladi. Xayollari tizginini qo‘yib yuborgani, ular ming qavat ko‘kni bir boshdan siypalab o‘tib borayotgani haqida yozar ekan, shoir:

Ko‘lanka kabidir: o‘tgan yeridan
So‘ngra qarasangiz bir nishon qolmas

degan xulosaga keladi. Uning iztirobi shu qadar cho‘ngki, boshqa bir she’rida bulut ramzi zamiriga “Mening ko‘nglimmi qora?! Yo yurt ko‘kida bulut?” tarzidagi Vatan va millat dardi bilan hamohang dardli savolni joylaydi.

Cho‘lpon ona yurt boshiga tushgan fojiani butun dahshati, bor mohiyati bilan ochib beradi. “Cho‘lpon — Cho‘lpondir” fiqrasida Ahmad Shukriy shoirni Shekspirga qiyoslagani bejiz emas. “Cho‘lpon oti qulog‘imga kirdikcha Shekspir ruhi ko‘rinadir-da turadir”, — deb yozgan edi muallif. — “Shekspir lirizmasi bilan Cho‘lpon she’riyati orasinda naqadar ayirma axtarsam-da, oni topa olmadim. “Uyg‘onish”ni necha topqirlar o‘qib chiqdim. Shekspirni mutolaa etdim. Eng so‘ng Shekspir Cho‘lpondir yoxud Cho‘lpon Shekspirdir fikriga keldim”.

Ahmad Shukriy balki davr taqozosi bilandir, bu ikki ijodkorni qiyoslaganda, fojia haqida gapirmaydi. Biroq uning yozganlari mag‘zidan har ikki fojianavis (Cho‘lpon lirikada, Shekspir dramada) asarlari mohiyatidagi uyg‘unlikni nazarda tutganini sezish qiyin emas.

Yulduz — Cho‘lpon orzularini ta’sirchan, betakror ifodalashda faol qo‘llangan poetik ramz. Zero, shoirning adabiy taxallusi ham ana shu ramzga mutanosib. “Yorug‘ yulduzga” she’rida shoir go‘zal, nurli yulduzga xitob qilib, otalarning tarixdagi xatolaridan, shu xatodan foydalanib, yovlarning el ko‘ksida surgan ishrat-safosidan so‘zlashini so‘raydi. O‘tmishdagi turmushning qonli, shonli jihatlaridan, yurt uchun jonlar berib, qonlar to‘kkan erlar kechmishidan hikoya qilishini o‘tinadi. Biroq yulduz jim. Nega? Ko‘zlari qizarinib yoshlanadi — nima uchun? Yuzlari so‘lg‘in tus oladi — ne sababdan? Shoir ta’biri bilan aytganda, chunki uning so‘zlaydigan yaxshi so‘zi yo‘q. Chunki “og‘iz ochsa, yo‘qsil elni ezmakka, qon qilmoqqa hasratlari ko‘p”. She’rdagi mana bu so‘zlar shoir yuragidan armon bo‘lib otilib chiqqan:

Falokatlar ko‘rgan ota-bobolar,
Istiqlolning qimmatini bilmagan.
El-u yurtni saqlar uchun so‘ng xonlar
Tuzukkina chora-tadbir qilmagan.

“Yupanmoq istagi” she’rida Cho‘lpon “Yo‘lni ko‘rsatuvchi yulduz-da qochsa” deya eldan tole yuz o‘girganini aytib, kuyinadi. “Amalning o‘limi” she’rida esa shoir erklik yulduzi haqida yozadi. Uni “tutqun ellar uchun samo qunduzi” deya ta’riflaydi. Bu yulduzning izi ko‘ngillarda qolishidan darak beradi. Erklik yulduzi, shoir nazdida, istiqlol darakchisi, erkinlik elchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Yulduz — Cho‘lpon nazdida orzu-umidni ifodalagan poetik ramz. Tasavvur qiling: go‘ristonday qorong‘i. Zim-ziyo bo‘shliqda adashgan bir yo‘lchi — bu tasvir shoirga istibdod zulmatida yo‘lsiz qolgan ona Turkis-tonni eslatadi. U yo‘l ko‘rsatuvchi yulduzga muhtoj. Qutulish tongidan mujda beruvchi bu yulduz milliy ozodlik orzusini tajassum etadi:

Go‘riston, qorong‘i. Zim-ziyo bo‘shliqda
Adashgan bir yo‘lchi... tasavvur qilingiz.
Qo‘rqasiz! Qo‘rqasiz!..
Va lekin ufqda
Uch-to‘rtta yulduzning
o‘chmasdan, yarqirab,
Nur sochib turgani ko‘rilsa... dilingiz
Qo‘rqishdan bir qadar to‘xtar-da, yarqirab
Ko‘zingiz oldida bir umid ko‘rinur.
Shu umid qutulish tongining nuridir!..

Biroq yulduz shoir she’rlarida har doim ham umid timsoli bo‘lib kelgan, deyish qiyin. Cho‘lpon nazmiy asarlarida ba’zan umidsizlikni ham ifodalagan. Birgina misol:

Charchag‘on yo‘lovchi yo‘ldan adashsa,
Tekis yo‘l qolsa-da, tog‘lardan oshsa,
Yo‘lni ko‘rsatuvchi yulduz-da qochsa,
Shunda yupang‘aymi yalang‘och cho‘llar?

Ta’kidlash kerakki, bu satrlarda ozodlik yo‘lidan adashgan millat ahvoli ruhiyati o‘z ifodasini topgan. Bu o‘rinda tog‘ — erk yo‘lidagi to‘siqlar. Yo‘lni ko‘rsatuvchi yulduzning qochishi — undan tole yuz o‘girgani belgisi. Mana, Cho‘lpon she’rlari zamirida millat dardi yulduz timsoli vositasida qanchalik qatma-qat, nechog‘liq ta’sirchan ifodalangan.

Mashhur “Qalandar ishqi” g‘azalining maqta’sida shoir o‘z taxallusi ma’nosiga ishora etgan holda mustamlaka Turkiston tanazzuli qay darajada chuqur ekanini yanada teran talqin qiladi:

Muhabbat osmonida go‘zal
Cho‘lpon edim, do‘stlar,
Quyoshning nuriga toqat qilolmay,
yerga botdim-ku.

Ushbu maqta’-baytni tahlil etar ekan, professor Begali Qosimov mana bunday yozadi: “Shubha yo‘qki, “Cho‘lpon” va “Quyosh”ning ma’nolari bu yerda juda keng. U osmon yoritkichlari va ishq-muhabbatdagi martabadan hokim va mahkum, hukmron va tobe singari ijtimoiy-siyosiy rutbalargacha daxldor”.

“Yurt yo‘li” she’rida muallif o‘zini uzoq, og‘ir yo‘lga chiqqan yo‘lchi hisoblab, bu yo‘llarda qilog‘uzi — yo‘lboshchisi yulduz ekanini aytadi:

Uzoq... og‘ir yo‘lga chiqqan yo‘lchimen,
Bu yo‘llarda qilog‘uzim yulduzdir.

Ushbu satrlarni tahlil etar ekan, adabiyotshunos Dilmurod Quronov “...yo‘l uzoq va mashaqqatli; ko‘zlangan maqsad — Yulduz, u goh bulutlar orasida ko‘rinmay qoladi, goh ojiz miltirasa, goh charaqlab ko‘zni qamashtiradi”, deya yulduz poetik ramzi ifodalagan mohiyatni tadqiq qiladi. Olim bu yo‘ldagi umid va umidsizlik bekatlarini Cho‘lpon va umuman, Turkiston boshdan kechirgan ijtimoiy-tarixiy hodisalar bilan bog‘laydi. Uning fikricha, “Umid bekatlari — 1917-yil fevral inqilobi, Buxoro jumhuriyatining tashkil topishi, “bosmachilik” tamg‘asini olgan milliy ozodlik harakatining kuchayishi... Umidsizlik bekatlari — Qo‘qon muxtoriyatining qonga botirilishi, Buxoro jumhuriyatining tugatilishi, milliy ozodlik harakatining yagona kuchga birlasholmay, parokanda bo‘lishi...”.

Darhaqiqat, Cho‘lpon she’riyatidagi har bir poetik ramz zamirida shoir lirik kechinmasi va orzu-armonlaridan tashqari, aniq ijtimoiy-tarixiy voqelik ta’siri badiiy talqin etilgan.

Mana bu misralarda Cho‘lpon uchun yulduz ertangi nurli istiqbolga umid tuyg‘usini ifodalagan:

Men yurtimning pok istakli kuchimen,
U yulduzning tugalishi kunduzdir.

Ya’ni shoir yurt boshiga kelgan zulmatli kunlar tugashini, tong yulduzi kunduzga ulanishini orzu qiladi.

Cho‘lpon she’rlarida milliy istiqlol orzusi ifodalangan ramzlardan yana biri — tong. Bir she’rini shoir “Tortishuv tongi” deb ataydi. She’r yenggan qo‘shin boshlig‘idek gerdayib botgan quyoshning bulutlar ostidan chiqmoq uchun tirishayotgani tasviri bilan boshlanadi. Muallif istibdod zindonida ko‘pdan beri quyosh ko‘rmay, zaxlab qolgan ko‘ngillarga istiqlol tongi mujdasini beradi:

Qayg‘uringiz:
kishanlarni yasovchi “ustalar”,
Boshqalarni “tubanlar”
deb atovchi xo‘jalar:
Sizning uchun yoz boshining qoridek
eruv kunlar keladir.
Sizning uchun olbostining zoridek
yig‘lar kunlar keladir.

She’rda otajak tong pafosi — ko‘tarinki ruh yetakchilik qiladi. “Kishanlarni yasovchi “ustalar”, boshqalarni “tubanlar” deb atovchi xo‘jalar” — mustabid tuzum yalovbardorlari ustidan hukm o‘qiladi. Shoir obrazli qilib, ular uchun yoz boshining qoridek eruv kunlar kelishidan, olbostining zoridek yig‘lar kunlar yetishidan xabar beradi. Bu amalda istiqlol haqidagi xabar edi.

Shoir mustaqillikni obrazli tarzda “chi-qadirgan quyosh” deb ataydi. Quyoshni etak bilan to‘sishga urinish nodonlikdan o‘zga narsa emas. Cho‘lpon nazdida, bu shunchalik aqlga nomuvofiqki, Azroil kelganda jon bermaslikka tirishmoq bilan barobar:

Chiqadirgan quyoshni siz behuda
Etak bilan to‘smoq uchun tirishmang.
Ahmoq bo‘lib Azroilning oldida
Jon talashing, to o‘lguncha berishmang!

Umuman, Cho‘lpon she’riyatida istiqlol haqidagi armon-u orzular xayol, kishan, bulut, yulduz, tong singari poetik ramzlar vositasida betakror badiiy talqin etilgan. Bir she’rida shoir “chechaklar ungusi ko‘z yoshlarimdan” deganidek, uning she’rlari ko‘ngillarda ozodlik chechaklari unishiga zamin bo‘ldi. Bugungi ozod va obod kunlar uchun Cho‘lpon va cho‘lponlar oldida qarzdormiz.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 784.
44899 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Bekqul Egamqulov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 01:35 Topshirildi — 02:15